

## **Qishloq xo'jaligi texnicalari xavfsizligi to'g'risida texnik reglament**

### **I. Bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Texnik reglament fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat mulkini muhofaza qilish maqsadida qishloq xo'jaligi texnikalari xavfsizligiga talablarni belgilaydi.
2. Quyidagilar ushbu Texnik reglamentning tarkibiy qismlari hisoblanadi:
  - a) Qishloq xo'jaligi traktorlari va ularning tirkamalari xavfsizligi to'g'risida qoidalar (1-ilova);
  - b) qishloq xo'jaligi va o'ziyurar mashinalar hamda kichik o'lchamli traktorlar xavfsizligi to'g'risida qoidalar (2-ilova).
3. Mazkur Texnik reglament ushbu Texnik reglament kuchga kirdunga qadar muomalaga chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishda bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikalariga tatbiq etilmaydi.

### **II. Bob. Atama va tushunchalar**

Ushbu Texnik reglamentda quyidagi atamalar va tushunchalar qo'llaniladi:

**qishloq xo'jaligi texnikalari** - qishloq xo'jaligi (dehqonchilik, melioratsiya va o'rmonchilik) ishlarini bajaradigan traktorlar va uning tirkamalari, o'ziyurar mashinalar, qishloq xo'jaligi mashinalari;

**traktor** – maksimal xisobiy yurish tezligi 6 km/soat dan kam bo'lmagan g'ildirak yoki zanjir mexanizmli xarakatlanuvchi, asosan tortish (sudrash), surish, tashish, o'ziga taqilgan yoki osilgan qishloq (o'rmon) xo'jaligi mashinalarini ishlatish uchun mo'ljallangan ichki yonuv dvigatelli transport vositasi;

**tirkama** – turli maqsadlar uchun, shu jumladan qishloq (o'rmon) xo'jaligi tovarlarini tashish uchun mo'ljallangan, traktor tomonidan tortiladigan transport vositasi. Tirkamalarga vertikal yukning bir qismi tortuvchi traktorga uzatiladigan yarim tirkamalar ham kiradi;

**o'ziyurar mashinalar** – g'ildirak yoki zanjir yuritmali, tashqi energiya vositalarisiz ishlash jarayoni harakatini ta'minlaydigan va ichki yonuv dvigatelli energiya manbai bo'lib xizmat qiladigan dehqonchilik, melioratsiya va o'rmonchilikda ishlatiladigan texnikalar;

**kichik o'lchamli traktor** – kuchlanishi 250 V dan ortiq bo'lmagan elektr toki quvvati 19 ot kuchiga qadar bo'lgan ichki yonuv dvigatelli bir o'qli shassili va yon tomonida yuruvchi inson tomonidan boshqariladigan motoblok;

**qishloq xo‘jaligi mashinalari** – dehqonchilikda ekin ekish oldidan tuproqga ishlov berish, urug‘ ekish va nihol o‘tqazish, ekinlarni parvarish qilish, sug‘orish, o‘g‘itlash, zararkunandalarga qarshi ishlov berish va defoliatsiya, o‘rim-yig‘im, hosilni o‘rim-yig‘imdan keyin qayta ishlash, hayvonlarga ozuqa tarqatish va ularni parvarish qilish; melioratsiyada tuproqni chuqur yumshatish, yer tekislash, tuproqni qatlam-qatlam kesib surish (skreperlash), drenaj tizimlari hamda o‘rmonlarni qayta tiklash va daraxt (buta va boshqa)larni parvarish qilish bo‘yicha texnologik ishlarini traktor yoki kichik o‘lchamli traktor ga osib yoki taqib ishlatiladigan texnikalar.

### **III. Bob. Qishloq xo‘jaligi texnikalari xavfsizligiga talablar**

5. Qishloq xo‘jaligi traktorlari va ularning tirkamalari xavfsizligi to‘g‘risida qoidalar ushbu Texnik reglamentning 1-ilovasida keltirilgan.

qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashinalar hamda kichik o‘lchamli traktorlar xavfsizligi to‘g‘risida qoidalar ushbu Texnik reglamentning 2-ilovasida keltirilgan.

### **IV bob. Qishloq xo‘jaligi texnikalari xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va monitoringi**

6. Mazkur Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi texnikalari  
xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik  
reglamentga

1-ILOVA

**Qishloq xo‘jaligi traktorlari va ularning tirkamalari  
xavfsizligi to‘g‘risida qoidalar**

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu xavfsizlik qoidalari inson hayoti va sog‘lig‘i hamda mulkini muhofaza qilish, atrof-muhitni himoya qilish, shuningdek iste’molchi (foydalanuvchi)larni ularning maqsadi va xavfsizligi haqida chalg‘itadigan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida traktorlar, tirkamalar va ularning komponentlariga qo‘yiladigan xavfsizlik talablarini belgilaydi.

2. Ushbu xavfsizlik qoidalari yangi ishlab chiqarilgan yoki import qilinadigan traktorlarga va ularning tirkamalariga, shuningdek, ularning xavfsizligiga ta’sir qiladigan yangi ishlab chiqarilgan yoki import qilinadigan komponent (butlovchi va ehtiyyot) qismlariga ham qo‘llaniladi. Ushbu xavfsizlik qoidalari qo‘llaniladigan komponentlar ro‘yxati 1-ilovada keltirilgan.

3. Ushbu xavfsizlik qoidalari quyidagilarga taalluqli emas:

qishloq xo‘jaligi mashinalari;

o‘ziyurar mashinalar;

kichik o‘lchamli traktorlar va ular uchun tirkamalar;

maxsus maqsadli tirkamalar;

treyler shassisi;

Ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirgunga qadar muomalaga chiqarilgan va foydalanylган traktorlar, tirkamalar va komponentlar;

amalda ishlab chiqarilgan, biroq muomalaga kiritilmagan va foydalanimagan, xususan, ishlab chiqaruvchining omborxonasida saqlanayotgan traktorlar, tirkamalar va komponentlar.

4. Ushbu xavfsizlik talablarida quyidagi atama va tushunchalar qo‘llaniladi:

**identifikatsiyalash** - ushbu xavfsizlik talablarida belgilangan muhim belgilarga muvofiqligini baholash uchun taqdim etilgan traktorlar, tirkamalar va ularning komponentlarining o‘ziga xosligini aniqlash;

**traktor** – maksimal xisobiy yurish tezligi 6 km/soat dan kam bo‘lmagan g‘ildirak yoki zanjir mexanizmli xarakatlanuvchi, asosan tortish (sudrash), surish, tashish, o‘ziga taqilgan yoki osilgan qishloq (o‘rmon) xo‘jaligi mashinalarini ishlatish uchun mo‘ljallangan ichki yonuv dvigatelli transport vositasi;

**tirkama** – turli maqsadlar uchun, shu jumladan qishloq (o‘rmon) xo‘jaligi tovarlarini tashish uchun mo‘ljallangan, traktor tomonidan tortiladigan o‘ziyurar bo‘lmagan g‘ildirakli transport vositasi. Tirkamalarga vertikal yukning bir qismi tortuvchi traktorga uzatiladigan yarim tirkamalar ham kiradi;

**ballast yuklar** – traktorning old va (yoki) orqa o‘qini qo‘sishimcha ravishda yuklash uchun mo‘ljallangan yuklar;

**tortish moslamasi** - traktorning traktor oldida joylashgan, uni tortish uchun moslamalarni (shtanga, buksir kanati va boshqalar) biriktirilishini ta’minlovchi konstruktiv elementi;

**ishga tushirish** - traktor yoki tirkamaning maqsadli foydalanishga tayyorligi hodisasini qayd etish hujjati;

**ikki yoqilg‘ili dvigatel** - dizel va gazsimon yoqilg‘ida bir vaqtning o‘zida ishlashga mo‘ljallangan dvigatel, bunda bir turdagи yoqilg‘ining boshqasiga nisbatan iste’mol qilinadigan miqdori dvigatelning ish rejimiga va turiga qarab farq qilishi mumkin;

**chiqit** - ushbu xavfsizlik talablarining texnik jihatdan tartibga solish ob’ektlarida o‘rnatilgan dvigatellar ishlaganda atrof-muhitga chiqadigan zararli moddalar;

**zararli moddalar** - havo tarkibidagi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan aralashmalar - uglerod oksidi, azot dioksidi, azot oksidi, metan, to’yingan alifatik uglevodorodlar, formaldegid va dispers kuyikish zarralari;

**yangi ishlab chiqarilgan** – Ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirgandan keyin ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilganiga uch yildan oshmagan hamda foydalanishda bo‘lmagan traktor, tikama va komponentlar;

**tormoz tizimi** - tormoz tizimining boshqaruvi elementiga ta’sir qilganda uni tormozlash uchun mo‘ljallangan transport vositasi qismlari to’plami;

**traktor balandligi** – gorizontal tayanch sath va undan eng katta balandlikda joylashgan traktor nuqtasi orasidagi vertikal o‘lchangan masofa, antennani hisobga olmaganda. Balandlikni aniqlashda tractor, ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan eng katta statik radiusga ega bo‘lgan yangi shinalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak;

**traktor uzunligi** - gorizontal tekislikda traktorning oldi va orqasidagi chekka nuqtalaridan bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan vertikal tekisliklar orasidagi masofa, bunda barcha ko‘zgular, ishga tushirish tutqichlari, old yoki yon marker chiroqlar mustasno;

**traktor kengligi** - traktorning bo‘ylama o‘qiga parallel bo‘lgan o‘ng va chap chekka yon taraflardan o‘tuvchi vertikal tekisliklar orasidagi o‘lchangan gorizontal masofa, bunda barcha ko‘zgular, burilish ko‘rsatkichlari, old yoki orqa yon chiroqlar, har qanday to‘xtash chiroqlari, traktor massasidan kelib chiqqan shinalar deformatsiyasi, yig‘iluvchi elementlar mustasno. Yig‘ib olinadigan elementlar qatoriga, masalan, chiqish zinalari ham kirishi mumkin;

**tortish maqbul massa** - traktorning tortishi mumkin bo‘lgan massa. Tortish maqbul massa quyidagilardan tashkil bo‘lishi mumkin: bir yoki bir nechta tirkamalarning massasi, qishloq xo‘jaligi mashinalarining massasi;

**ishlab chiqaruvchi** - traktor, tirkama yoki komponentni ishlab chiqarish va sotishni amalga oshiradigan hamda ularning xavfsizlik talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**import qiluvchi** - traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni mamlakatga olib kirish uchun norezidentlar bilan tashqi savdo shartnomasini tuzgan va sotishni amalga oshirgan hamda ularning xavfsizlik talablariga muvofiqligi uchun javobgar rezident;

**traktor (tirkama) toifasi** - xavfsizlik talablarida talablarni belgilash maqsadida foydalilaniladigan traktor (tirkama)ning tavsifi;

**komponent** - yig‘ish usulida mahsulot ishlab chiqarishga va (yoki) ishlayotgan traktor yoki tirkama uchun almashtirish (ehtiyyot) qismlari sifatida yetkazib beriladigan traktor yoki tirkamaning ajralmas qismi;

**traktor, tirkama yoki ularning komponentlarining bozorda aylanishi** - ishlab chiqarilishi tugagandan keyin traktor, tirkama yoki ularning komponentlarini ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga (foydalanuvchiga) tekin yoki to‘lovli asosda tarqatish maqsadida o‘tkazish jarayonlari;

**traktoring maksimal xisobiy tezligi** - dvigatel tirsakli valining nominal aylanishlar chastotasi, transmissiyaning eng kichik uzatish soni va sirpanish bo‘lmagan xolatdagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha xisoblab topilgan tezlik;

**maxsus maqsadli tirkama** - quyidagi shartlardan bir yoki bir nechtasiga javob beradigan tirkamani anglatadi:

    tirkama ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan qo‘srimcha yo‘l harakati xavfsizligi choralarisiz yo‘l harakatida ishtirok etish uchun mo‘ljallanmagan;

    shassi va faqat ma’lum turdagи yuklarni (hayvonlar, parrandalar, rulonli va kvadrat shaklida presslangan xashaklar, silos va senaj hamda boshqalarni) ochiq platformada tashishni ta’minlaydigan mahkamlangan o‘rnidan yechilmaydigan maxsus jihozlardan tashkil topgan tirkama;

    tirkama ma’lum texnologik jarayonlar va operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan yuklash va tushirish va (yoki) maxsus jihozlar bilan jihozlangan (masalan, avtonom maydalagichlar). Shu bilan birga, yuklarni tashish bilan bir vaqtning o‘zida yoki qo‘srimcha ishlar (o‘g‘itlarni sochish tirkamalari, yog‘och tashish tirkamalari va boshqalar)ni amalga oshirishi mumkin.

Maxsus maqsadli tirkamalarga bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta belgilangan shartlarga javob beradigan tirkamalar xam taalluqli, bunda:

    vertikal yukning qaysi qismi tortuvchi traktorga (maxsus maqsadli yarim tirkamalar) uzatiladi;

    gabarit o‘lchamlari 5-ilovaning VIII bob, 35-bandning b)-kichik bandida belgilangan o‘lchamlardan oshib ketadigan;

**shinalarning aylana radiusi** – g‘ildirakning ilgarilanma tezligini uning burchak tezligiga nisbati;

**yukini o‘zi to‘kuvchi tirkama** - bir yoki ikki tomondan va orqaga yoki faqat orqaga tushirishda platformaning ko‘tarilishi va qiyaligini ta’minlaydigan mexanizm bilan jihozlangan tirkama;

**sertifikatlash sinovlari** - traktor, tirkama yoki komponentlarning standart namunasi (namunalari) sinovlari, ularning natijalariga ko‘ra traktor, tirkama yoki ularning komponentlarlarining xavfsizlik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi;

**traktorning to‘liq (ekspluatatsiya) massasi** - traktorning ish holatidagi massasi, ballast yuklarisiz, shu jumladan ag‘darishdan himoya qilish moslamasi, dvigatel sovutish tizimi suvi, moylash materiallari, yoqilg‘i (bak nominal hajmining kamida 90 foizigacha to‘ldirilgan xolat), asboblar va haydovchi massasi bilan;

**bog‘lash sxemasi** – tashish vaqtida traktor yoki tirkamani transport vositasiga yuklash yoki undan tushirish uchun uni yuk ko‘taruvchi qurilma bilan bog‘lash sxemasi;

**texnik xizmat ko‘rsatuvchi** – g‘ildirakli transport vositalari va ularga o‘rnatalishi va/yoki ishlatilishi mumkin bo‘lgan jihozlar hamda ehtiyyot qismlarga yagona texnik talablarni qabul qilish to‘g‘risidagi texnik ko‘rsatma berish va ularni o‘zaro tan olish shartlari bo‘yicha 1958 yil 20 martda Jenevada tuzilgan Bitim (keyingi o‘rinlarda - 1958 yil Shartnomasi deb yuritiladi) doirasida transport vositalarining turlarini tasdiqlash bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish bo‘yicha vakolatli tashkilot.

**texnik jihatdan maqbول tortish massasi** - ishlab chiqaruvchi tomonidan traktor tortib yurishi belgilab qo‘yilgan maksimal massa;

**traktorning texnik jihatdan maqbول maksimal massasi** - shinalarning yuk ko‘tarish qobiliyatiga, traktor elementlarining konstruktiv tavsiflariga, belgilangan tavsiflar va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini ta‘minlash qobiliyatiga qarab ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan, traktorning maksimal massasi. Bunda traktorning eng og‘ir komplektatsiyali to‘liq (ekspluatatsiya) massasi, ballastning nominal massasi va nominal ijobiy yuklanish e‘tiborga olingan;

**texnik ta’rif** – ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs), sotuvchi tomonidan muvofiqlikni tasdiqlash uchun taqdim etilgan texnik va konstruktiv tavsiflarni, shuningdek traktor yoki tirkamani identifikasiya qilish imkonini beruvchi boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjat;

**traktor, tirkama yoki komponent turi** - bir ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan, texnik ta’riflarda qayd etilgan bir xil konstruktiv xususiyatlар majmui bilan tavsiflangan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar. Traktor, tirkama yoki komponent turi turli xil variantlar va versiyalarga ega bo‘lishi mumkin;

**traktor poyezdi** - traktor, yarim tirkama va (yoki) bir yoki bir nechta tirkamalardan tashkil topgan harakatlanuvchi tarkib;

**tortish-bog‘lash mexanik qurilmasi (TBQ)** - traktor va tirkamaga orasidagi mexanik aloqani ta‘minlash uchun ularga o‘rnatalgan ularga ularning xavfsizlik elementlari, qurilma;

**ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs** - ishlab chiqaruvchi bilan tuzilgan shartnomasi asosida uning nomidan o‘zaro kelishilgan hududda traktor, tirkama yoki komponentlarni joylashtirish, shuningdek ularning xavfsizlik talablariga mos kelmasligi uchun javobgarlik yuklangan, davlat tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**tiрkama shassisi** - tirkamaning bir yoki bir nechta quyidagi qurilmalarni o‘rnatish uchun mo‘ljallangan tarkibiy qismi:

platformalar, korpuslar va boshqa shunga o‘xshash qurilmalar; texnologik uskunalar; ko‘tarish (yuklash va tushirish) uskunalar.

Tirkama shassisiga vertikal yuqining bir qismini tortuvchi traktorga o‘tkazadigan tirkama shassisini (yarim tirkamali shassi) ham tegishli;

**ekologik sınıf** – siqilish xisobiga olovlanadigan ichki yonuv dvigatelinig atmosferaga zararli moddalar chiqarish darajasiga qarab dvigatel yoki traktor konstruksiyasini tavsiflovchi tasnif kodi.

5. Traktorlar, tirkamalar va ularning komponentlari ushbu xavfsizlik talablariga muvofiq bo‘lsa va ushbu xavfsizlik talablarining 4-bobiga ko‘ra muvofiqligini tasdiqlashdan o‘tgan bo‘lsa bozorga chiqariladi.

6. Ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligi tasdiqlanmagan traktorlar, tirkamalar va ularning komponentlari bozorda muomalaga chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **II-bob. Xavfsizlik talablari**

7. Traktorlar va tirkamalarning konstruksiyasi doimo ulardan foydalanish davomida xavfsizlikni ta’minlashi kerak.

8. Traktor dvigatellarining chiqindi gazlari tarkibidagi atmosferaga zararli moddalar chiqarish darajasiga qarab siqilish xisobiga olovdanadigan ichki yonuv dvigatelli traktorlar va ichki yonuv dvigatellarining tasnifi ushbu xavfsizlik talablarining 3-ilovasida keltirilgan.

9. T1, T2, T3, T5, C toifali traktorlar (C4 bundan mustasno) va R toifali tirkamalarga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari ro‘yxati, shuningdek xavfsizlik talablari va ularni nazorat qilish usullarini belgilovchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - BMT) standartlari va qoidalari ushbu xavfsizlik talablariga 4-ilovaning 1-jadvalida keltirilgan.

10. T4, C4 toifali maxsus mo‘ljallangan traktorlar uchun xavfsizlik talablari ro‘yxati, shuningdek, xavfsizlik talablari va ularni nazorat qilish usullarini belgilovchi BMT standartlari va qoidalari ushbu xavfsizlik talablariga 4-ilovaning 2-jadvalida keltirilgan.

11. Ushbu xavfsizlik talablariing 4-ilovasiga muvofiq traktorlar va tirkamalar uchun xavfsizlik talablari 5-ilovada keltirilgan.

12. Foydalanishda bo‘lgan traktorlar yoki tirkamalar uchun ehtiyoj qismlar sifatida muomalaga chiqarilgan komponentlar traktor yoki tirkamaga o‘rnatilganda, uning xavfsizligi darajasini o‘sha paytdagi xavfsizlik darajasiga nisbatan kamaytirmasligi kerak.

Traktorlar yoki tirkamalarning komponentlariga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari va ularni nazorat qilish usullari ushbu xavfsizlik talablarining 1-ilovasida keltirilgan.

Ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirgan kundan oldin muomalaga chiqarilgan yoki ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirishi munosabati bilan ishlab chiqarilishi to‘xtatilgan traktorlar uchun komponentlar sifatida ishlab chiqarilgan traktor dvigatellariga qo‘yiladigan talablar, zararli moddalarning chiqish darajasi bo‘yicha

bunday traktorlar muomalaga chiqarilishi yoki ishlab chiqarilishi tugashi paytidagi amaldagi darajada o‘zgarishsiz qoladi.

13. BMT qoidalariga muvofiq traktorlar, tirkamalar va komponentlar uchun xavfsizlik talablari ularning ko‘lamiga muvofiq va BMT qoidalarida belgilangan o‘tish qoidalarini hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Yuqori ekologik toifadagi traktorlar va dvigatellarga talablarni ushbu xavfsizlik talablarida belgilangan muddatdan oldinroq qo‘llash, shuningdek, BMT qoidalariga ushbu xavfsizlik talablarida ko‘rsatilganidan ko‘ra keyingi qator o‘zgartirishlar talablarini qo‘llashga ruxsat beriladi.

### **III-bob. Xavfsizlik talablariga muvofiqlikni ta’minlash**

14. Traktor va tirkamalarning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligi BMT qoidalari talablariga, shuningdek ushbu xavfsizlik talablarining 4 va 5-ilovalarida keltirilgan talablarga muvofiqligi bilan ta’minlanadi.

Traktor va tirkamalar komponentlarining ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligi uning talablarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarish 1-ilovada keltirilgan BMT qoidalari talablariga rioya qilish orqali ta’minlanadi.

15. Muvofiqlikni baholash (tasdiqlash) uchun zarur bo‘lgan, traktor va tirkamalarni nazorat qilish usullari ushbu xavfsizlik talablarining 4-ilovasida keltirilgan BMT qoidalari bilan belgilanadi.

Muvofiqlikni baholash (tasdiqlash) uchun zarur bo‘lgan, traktor va tirkamalar komponentlarini nazorat qilish usullari ushbu xavfsizlik talablarining 1-ilovasida keltirilgan BMT qoidalari bilan belgilanadi.

### **IV-bob. Muvofiqlikni tasdiqlash**

16. Bozorga chiqarilgunga qadar traktorlar, tirkamalar va komponentlar ushbu xavfsizlik qoidalari muvofiqligi tasdiqlanishi kerak.

Muvofiqlikni tasdiqlash ushbu bobga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu xavfsizlik qoidalari qo‘yiladigan va muvofiqligini tasdiqlash traktorlar va tirkamalardan alohida amalga oshiriladigan traktorlar yoki tirkamalarning komponentlarining ro‘yxati ushbu xavfsizlik qoidalarining 1-ilovasida keltirilgan.

Ushbu xavfsizlik qoidalaring 1-ilovasida ko‘rsatilgan, traktorlar va tirkamalar ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘zlarining yig‘ish ishlab chiqarishi uchun ishlab chiqarilgan yoki traktorlar va tirkamalar yig‘ish ishlab chiqarishiga etkazib beriladigan komponentlar uchun muvofiqlikni baholash amalga oshirmaslik mumkin. Shu bilan birga, ushbu komponentlar uchun traktorlar va tirkamalar ishlab chiqaruvchisi Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi) tomonidan berilgan sinov hisobotlariga yoki 1958 yilgi Bitimga muvofiq chiqarilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq rasmiy turni tasdiqlash to‘g‘risidagi xabarlar (keyingi o‘rinlarda - turni tasdiqlash xabarları deb yuritiladi) yoki ushbu texnik reglament yoxud tavsif va ko‘rsatkichlari shuningdek nazorat qilish usullari bo‘yicha standartlar va BMT qoidalari (ularning majburiy yoki ixtiyoriligi qonunchilikga muvofiq o‘rnataligan tartibda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan belgilanadi) qo‘ygan talablarga muvofiqlik sertifikatlariga ega bo‘lishi kerak.

Traktorlar va tirkamalarni majburiy sertifikatlashtirish sinovlari faqat Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi) tomonidan berilgan sinov dalolatnomalari yoki rasmiy turni tasdiqlash to‘g‘risidagi hisobotlar yoki ushbu xavfsizlik qoidalariga 1-ilovada ko‘rsatilgan komponentlarga muvofiqlik sertifikatlari mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi.

Texnik ta’rifga kiritilgan variantlar va versiyalarni (agar mavjud bo‘lsa) birlashtirgan bir xil turdagи traktorlar va tirkamalar uchun bitta muvofiqlik sertifikati beriladi. Texnik ta’rif shakllari ushbu xavfsizlik qoidalarining 2-ilovasida keltirilgan.

Yoritish va signalizatsiya qurilmalari kabi komponentlar uchun yorug‘lik chiroqlarining turli funksional guruhlari uchun bitta muvofiqlik sertifikatini berishga ruxsat beriladi.

17. Traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar muvofiqligini tasdiqlash sertifikatlash shaklida (1s, 2s, 3c, 4s sxemalari) bajariladi.

18. Seriyali ishlab chiqarilgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni sertifikatlash 1s yoki 2s sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs) tomonidan sertifikatlash uchun taqdim etiladi.

Traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar partiyasini sertifikatlash 3s sxema bo‘yicha, donali mahsulot esa 4s sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Maxalliy ishlab chiqarilgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar partiyasi (donali mahsulot) ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs), import qilinadigan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar partiyasi (donali mahsulot) import qiluvchi yoki ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs) tomonidan taqdim etiladi.

19. Traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni sertifikatlash Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sertifikatlashtirish organi (muvoqqlikni baholash (tasdiqlash)) tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlash uchun sinovlar Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi) tomonidan amalga oshiriladi.

Turni tasdiqlash xabarları BMT qoidalariga muvofiq traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning xavfsizlik talablarini sertifikatlash uchun ishlatalishi mumkin.

20. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs), import qiluvchi sertifikatlashtirish organiga (muvoqqlikni baholash (tasdiqlash)) traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning ushbu xavfsizlik qoidalari xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqllovchi quyidagi hujjatlar to‘plamini taqdim etadi:

traktor yoki tirkamaning texnik ta’rifi (traktor yoki tirkamani sertifikatlashda);

butun komponent uchun texnik hujjatlar (konstrukturlik, texnologik yoki operasion hujjatlar (agar mavjud bo‘lsa)) (komponentlarni sertifikatlash uchun);

traktor yoki tirkama uchun ekspluatatsiya hujjatlari (traktor yoki tirkamani sertifikatlash uchun);

sifat menejmenti tizimining muvofiqlik sertifikati nusxasi (2s-sxema);

sifat menejmenti tizimining so‘nggi auditi hisobotining nusxasi (2s-sxema);

traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning partiyasi (donali mahsulot) uchun (3c, 4s sxemalari), ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yuk hujjatlari (shu jumladan miqdori, identifikatsiya (seriya) raqamlari), ishlab chiqaruvchi (shu jumladan xorijiy ishlab chiqaruvchi) bilan yetkazib beriladigan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlashni va bunday mahsulotlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi shartnomaning nusxasi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs uchun);

qonunchilikga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishda berilgan ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olish (jismoniy shaxs, identifikatsiya) to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sertifikatlashtirish xujjatlari to'plamiga quyidagilar ham kirishi mumkin:

a) Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ushbu xavfsizlik talablariga 4-ilovaning 1 va 2-jadvallariga (traktorlar va tirkamalarga) va ushbu xavfsizlik talablariga 1-ilovada keltirilgan komponentlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq individual talablar bo'yicha berilgan sinov hisobotlari.

Ushbu sinov hisobotlarini, shu jumladan, ilgari boshqa muvofiqlik sertifikatlari berilgan protokollarni taqdim etishga quyidagi shartlar bilan ruxsat beriladi:

sinov dalolatnomasi Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab 5 yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa;

taqdim etilgan sinov hisoboti qonunchilikga muvofiq haqiqiy emas deb topilsa;

sinov uchun namunalarni tanlash, uning natijalari bo'yicha sertifikatlashtirish organi tomonidan sinov hisoboti berilsa;

sinovdan o'tgan namuna sertifikatlash uchun e'lon qilingan mahsulotlar uchun xos bo'lsa;

traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar konstruksiyasida ularning xavfsizligiga ta'sir etuvchi o'zgarishlar bo'lmasa;

Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan sinov hisoboti tasdiqlangan kundan boshlab, ushbu xavfsizlik talablarida va sinovlar doirasida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholashda belgilangan xavfsizlik talablari va ularni nazorat qilish usullariga (shu jumladan standartlarda yoki BMT qoidalarida ko'rsatilgan) o'zgarishlar kiritilmagan bo'lsa;

ishlab chiqaruvchi tomonidan traktorlar, tirkamalar yoki butlovchi qismlarni muomalaga chiqarishda ushbu xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati (nazorati) organi tomonidan belgilangan ushbu xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik holatlari mavjud bo'lmasa;

b) turini tasdiqlovchi rasmiy xabarlar. Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs) tomonidan turi rasmiy tasdiqlangan xabarlarning qog'ozdagi nusxalarini taqdim etishga ruxsat beriladi. Bunda, ingliz yoki fransuz yoxud rus tillarida yozilgan tasdiqlovchi xabarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish talab qilinmaydi;

v) ushbu xavfsizlik talablarining alohida talablariga muvofiqlik sertifikatlari;

21. Ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlash va ishlab chiqarilgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ta'minlaydi.

22. Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi) tomonidan berilgan sinov hisobotlari yoki turini rasmiy tasdiqlash xabarları taqdim etilgan talablarga nisbatan sinovlar o'tkazilmaydi.

23. Sertifikatlashtirish organi:

a) Muvofiqlikni tasdiqlash uchun arizani ko'rib chiqadi va sertifikatlash imkoniyati to'g'risida qaror qabul qiladi. Qarorda quyidagilar ko'rsatiladi:

taqdim etilgan hujjatlarning yetarligi va ularni qo'llash mumkinligi;  
yetishmayotgan dalillarni olish uchun sinovlarni o'tkazish zaruriyati;  
ishlab chiqarish holatini tahlil qilish muddati va zaruriyati.

Agar muvofiqligi BMT qoidasida ushbu xavfsizlik talablariga 1-ilovada keltirilgan traktorlar va tirkamalarning komponentlar uchun turini tasdiqlash xabarları dalil sifatida taqdim etilsa, sertifikatlashtirish organi komponentlarni identifikasiya qilgandan keyin ushbu 23-bandning a)-kichik bandiga muvofiq taqdim etilgan turni tasdiqlash xabari asosida ushbu bandning b)-kichik bandi – 26-bandlarda ko'rsatilgan ishlarni bajarmasdan muvofiqlik sertifikat beradi. Muvofiglik sertifikatida sertifikatlashtirish sxemasi o'rniga "s" harfi ko'rsatiladi;

b) Yetishmayotgan dalillarni olish uchun:

namunani (namunalarni) tanlash va traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni identifikasiya qilish ularning tavsiflari belgilarining ushbu xavfsizlik talablarining I-bob va II-bobda belgilangan qoidalarga, va 20-bandda ko'rsatilgan hujjatlarga muvofiqligini belgilash orqali amalga oshiriladi;

ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini sinash uchun traktor, tirkama yoki komponentlarning namunasi(lari) Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi)ga yuboradi.

24. Ishlab chiqarish holatini tahlil qiladi (1-sxema). Ishlab chiqarish holatini tahlil qilishda tekshirish ob'yektlari quyidagilardir:

mahsulotlar uchun texnik (loyihaviy va (yoki) konstrukturlik, va (yoki) texnologik, va (yoki) ekspluatatsiyaviy) hujjatlar;

muomalaga chiqarilgan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik qoidalari talablariga muvofiqligiga ta'sir etuvchi ishlarni bajaruvchi xodimlarning malakasi;

ishlab chiqarish infratuzilmasi (ishlab chiqaruvchining hududida joylashgan va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ob'yektlar majmuasi (ishlab chiqarish binolari, transport va boshqalar));

dastgohlar (texnologik jihozlar), shuningdek, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

nazorat, o'lchash va sinov uskunalarini boshqarish;

mahsulotning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'lchov vositalari;

sertifikatlanayotgan mahsulotlarning (xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar) xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi sotib olingan mahsulotlarning kirish nazorati;

ushbu xavfsizlik talablarida majburiy talablar belgilangan tavsiflarni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tayyor mahsulotlarni qabul qilish nazorati va davriy sinovlari;

tayyor mahsulotlarni markalash, ularni saqlash, qadoqlash va saqlash shartlari;

iste’molchilar bilan o‘zaro hamkorlik (shu jumladan, ma’lum bir ishlab chiqaruvchining mahsulotlariga shikoyat va shikoyatlarni ko‘rib chiqish);

korrektirovkalash va oldindan ogohlantirish tadbirlari.

25. Sertifikatlanayotgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni barqaror ishlab chiqarishni ta’minalash uchun sertifikatlangan ishlab chiqarish sifatini boshqarish tizimining yoki traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish qobiliyatini ushbu xavfsizlik talablariga javob berishini (2c-sxema) baholaydi

26. 23-bandning a)-kichik bandi – 25-bandlarga va tanlangan sertifikatlashtirish sxemasiga muvofiq amalga oshirilgan sertifikatlashtirish ishlari natijalarini umumlashtiradi;

27. Muvofiqlik sertifikatini, muvofiqlik sertifikatiga ilova bilan, ushbu xavfsizlik qoidalari 2-ilovasining IV-bobida belgilangan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Ommaviy ishlab chiqarilgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati - 5 yil, traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning partiyasi (donaviy mahsulot) uchun amal qilish muddati belgilanmaydi va miqdoriy kvota bilan cheklanadi, bunda muvofiqlik sertifikati ishlab chiqarish partiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi - identifikasiya raqamlari, yuk hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki ushbu partianing boshqa belgilar;

28. Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs) yoki sotuvchi:

a) Ushbu xavfsizlik talablarining V-bobida nazarda tutilgan hollarda, bozorda mahsulot aylanishining yagona belgisi bilan markalashni ta’minalaydi;

b) Ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlashni tugatgandan so‘ng, traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar uchun hujjatlar to‘plamini shakllantiriladi, ularga quyidagilar kiradi:

20-bandda ko‘rsatilgan hujjatlar;

23-bandning b)-kichik bandida nazarda tutilgan hollarda sinov hisoboti(lar)i;

sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda ishlab chiqarish holatini tahlil qilish natijalari;

muvofiqlik sertifikati.

29. Sertifikatlash organi yiliga bir martadan ko‘p bo‘lmasligi, lekin kamida ikki yilda bir marta sertifikatlangan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlarning inspeksiya nazoratini quyidagi vositalar bo‘yicha amalga oshiradi:

namuna(lar)ni Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi)da sinovdan o‘tkazish va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish (1-sxema);

namuna (namunalar)ni Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi)da sinovdan o'tkazish va (yoki) sertifikatlangan sifat menejmenti tizimining inspeksiya nazorati natijalarini tahlil qilish (2c-sxema).

Vakolatli davlatlar - 1958 yilgi kelishuv a'zolari texnik xizmatlari o'tkazgan ishlab chiqarishning muvofiqligini baxolash natijalarini taxlil qilish va (yoki) komponentlarni sinash orqali turni tasdiqlash xabarları asosida sertifikatlangan komponentlarning inspeksiya nazorati amalga oshiriladi;

30. Muvofiqlik sertifikati berilgan traktorlar, tirkamalar va dvigatellarning konstruksiyasiga yoki ularni ishlab chiqarish (tayyorlash) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilganda yoki traktoring texnik tavsifida ko'rsatilgan ma'lumotlar, yoki tirkama almashtirilganda ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs) traktorlar, tirkamalar va dvigatellarni muomalaga chiqarishdan oldin uning tarkibini tasdiqlovchi hujjatlarni va kiritilgan o'zgarishlarning xususiyatlari (texnik ta'rif, loyiha hujjatlari, chizmalar, spesifikatsiyalar va boshqalar)ni ilova qilgan holda muvofiqlik sertifikatini bergen sertifikatlashtirish organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Ishlab chiqaruvchidan (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs) bildirishnomasi olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilish asosida ularning hajmini aniqlash uchun qo'shimcha sinovlar o'tkazish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish (agar ishlab chiqarish holatini tahlil qilish bunday mahsulotlarni sertifikatlash sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa) yoxud bunday ehtiyojning yo'qligi haqida ishlab chiqaruvchini (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxsni) qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qiladi.

Traktorlar, tirkamalar va dvigatellarning konstruksiyasi (tarkibi) yoki ishlab chiqarish (ishlab chiqish) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs) sertifikatlashtirish organidan qo'shimcha sinovlar va (yoki) traktorlar, tirkamalar va dvigatellarni ishlab chiqarish holatini tahlil qilish zarurati yo'qligi xaqida bildirishnomasi olguncha muomalaga chiqarilishiga yo'l qo'shilmaydi.

Agar mahsulotni sertifikatlash organi qo'shimcha sinovlar va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish zarurati to'g'risida qaror qabul qilsa, bunday qaror ushbu bandning ikkinchi bandida ko'rsatilgan muddatda mahsulotni sertifikatlash organi tomonidan ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs)ga to'g'ridan-to'g'ri yoki ro'yxatdan o'tgan pochta orqali mazmuni tavsifi va yetkazib berish to'g'risida xabarnoma bilan jo'nataladi.

Sertifikatlashtirish organi traktorlar, tirkamalar va dvigatellarning qo'shimcha sinovlari va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish tugallangan kundan boshlab 5 ish kuni ichida traktorlar, tirkamalar va dvigatellarning belgilangan talablarga muvofiqligi (mos emasligi) to'g'risida ushbu xavfsizlik talablariga muvofiq qaror qabul qiladi.

Traktorlar, tirkamalar va dvigatellarning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligi to'g'risidagi qaror asosida mahsulotni sertifikatlash organi ishlab chiqaruvchiga (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxsga) muvofiqlik sertifikatiga uni yangi shaklda berish va unga yangi ro'yxatga olish raqamini berish yo'li bilan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish imkoniyati to'g'risida xabarnoma yuboradi, bunda berilgan

muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati almashtirilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatiga muvofiq belgilanadi. Ko'rsatilgan bildirishnomalar, tirkamalar va dvigatellarning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligi (mos emasligi) to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yuboriladi.

Muvofiqlik sertifikatining "qo'shimcha ma'lumotlar" ustunida "almashtirish sifatida berilgan" ma'lumotlari, keyin esa avvalgi muvofiqlik sertifikatining ro'yxatga olish raqami va berilgan sanasi ko'rsatiladi. Muvofiqlik sertifikatini berish bilan bir vaqtida sertifikatlashtirish organi berilgan muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar qo'shimcha sinovlar natijalari salbiy bo'lsa, mahsulotni sertifikatlash organi ishlab chiqaruvchiga (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxsga) ushbu kichik band qoidalariga muvofiq muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritishni rad etish to'g'risida qaror chiqaradi, bunday rad etishning asosli sabablarini ko'rsatgan holda.

Traktorlar va tirkamalarning muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha qo'shimcha proseduralar natijalari bo'yicha sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan hujjatlar tasdiqlovchi materiallar to'plamiga kiritiladi va 1958 yilgi kelishuvga a'zo davlatning ushbu xavfsizlik qoidalari (zarur bo'lsa) belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini (nazoratini) amalga oshiradigan organlariga taqdim etiladi.

31. 1c yoki 2c sxemalari bo'yicha traktorlar yoki tirkamalarni sertifikatlash uchun ariza beruvchi sifatida ishlagan va muvofiqlikni baholash prosedurasi tugagandan so'ng tuzilgan traktor yoki tirkama uchun hujjatlar to'plamiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs) 28-bandning b)-kichik bandi talablariga muvofiq, traktor yoki tirkama uchun muvofiqlik sertifikatini bergen sertifikatlashtirish organiga o'zi tomonidan ishlab chiqarilgan traktor yoki tirkama sertifikatlashning ijobiy natijalari asosida ushbu xavfsizlik talablarining 1-ilovasida keltirilgan komponentlarga muvofiqlik sertifikatini olish uchun murojaat qilish huquqiga ega.

Traktorlar yoki tirkamalarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish uchun almashtirish (ehtiyyot) qismlari sifatida yetkazib beriladigan komponentlarga muvofiqlik sertifikati traktor yoki tirkamaning ushbu xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlash natijalariga ko'ra, quyidagi shartlarda berilishi mumkin:

traktorlar yoki tirkamalarni yig'ish usulida ishlab chiqarishga yetkazib beriladigan komponentlar va traktorlar yoki tirkamalarga sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish uchun yetkazib beriladigan komponentlarning identichligi (traktor yoki tirkamaning texnik ta'rifida tegishli ma'lumotlarning mavjudligi);

traktor yoki tirkama ishlab chiqaruvchisi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs) tomonidan zaxira (ehtiyyot) qismlar sifatida taqdim etilgan komponentlar tegishli traktorlar yoki tirkamalarni yig'ish uchun yetkazib berilgan yoki yetkazib berilgan komponentlar bilan bir xil ekanligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etilganda.

Traktor yoki tirkama ishlab chiqarish to'xtatilganda va shunga mos ravishda traktor yoki tirkama uchun muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugagan taqdirda, traktor yoki tirkama ishlab chiqaruvchisi (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxs) traktor yoki tirkama uchun o'zi tomonidan ishlab chiqarilgan va zaxira (ehtiyyot) qismlar sifatida yetkazib beriladigan komponentlarga muvofiqlik sertifikati

olish uchun ariza berilishi mumkin, yaroqlilik muddati 5 yildan ko‘p bo‘lmagan, seriyali ishlab chiqarilgan komponentlar uchun (komponentlar partiyasi (donaviy mahsulot) uchun amal qilish muddati belgilanmaydi bunda muvofiqlik sertifikatida mahsulot partiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, identifikasiya raqamlari, jo‘natish hujjatlari haqidagi ma’lumotlar va boshqalar ko‘rsatiladi. Ko‘rsatilgan komponentlarga muvofiqlik sertifikati traktor yoki tirkamaning bojxona hududida muomalaga chiqarilishi tugash vaqtida amaldagi talablarga muvofiq, sertifikatlashtirish organi tomonidan amalga oshiriladigan komponentlarni ishlab chiqarish holati tahlilining ijobiy natijasi bo‘lgan taqdirda berilishi mumkin.

32. IV-bob 28-bandining b)-kichik bandiga muvofiq tuzilgan traktorlar, tirkamalar yoki butlovchi qismlar uchun hujjatlар to‘plami quyidagi muddatda saqlanishi kerak:

seriyali ishlab chiqarilgan traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar uchun - ishlab chiqaruvchidan (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxsdan) ushbu traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar ishlab chiqarishdan olib tashlangan (ishlab chiqarish to‘xtatilgan) kundan boshlab kamida 10 yil muddatga;

traktorlar, tirkamalar yoki komponentlar partiyasi uchun - ishlab chiqaruvchidan (ishlab chiqaruvchi tomonidan ruxsat berilgan shaxsdan) yoki sotuvchidan partiyadan oxirgi mahsulot sotilgan kundan boshlab kamida 10 yil davomida.

33. Hujjatlар to‘plami:

mahalliy ishlab chiqaruvchida - o‘zbek tilida;

importda - o‘zbek tili va ishlab chiqaruvchi joylashgan davlat tili, shuningdek ingliz tilida;

eksportda – eksport qilinayotgan davlat talabi bo‘yicha bo‘lishi kerak.

#### **V-bob. Bozorda mahsulot aylanishining yagona belgisi belgilash (markalash)**

34. Ushbu xavfsizlik talablariga javob beradigan va ushbu xavfsizlik talablarining IV-bobiga muvofiq muvofiqlik tasdiqlovidan o‘tgan traktorlar, tirkamalar va komponentlarni bozorda mahsulot aylanishining milliy muvofiqlik belgisi bilan belgilash kerak.

35. Traktor, tirkama yoki komponentlarni bozorda mahsulot aylanishining milliy muvofiqlik belgisi bilan belgilash ularni bozorga chiqarishdan oldin amalga oshiriladi.

Tirkamalardagi ishlab chiqaruvchining yorlig‘ida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

ishlab chiqaruvchining nomi;

tirkama turi;

muvofiglik sertifikatining raqami (muvofiglik sertifikatini olgandan keyin qo‘shimcha ravishda kiritiladi);

o‘rnatalishi mumkin bo‘lgan shinalarning ruxsat etilgan turlariga qarab, tirkamaning umumiyligini ruxsat etilgan massa;

har bir tirkama o‘qida ruxsat etilgan maksimal yuk (ma’lumotlar old o‘qdan orqa o‘qga tartibda ro‘yxatga olinishi kerak);

traktorni tortish moslamasiga yuk (yarim tirkamalar uchun).

b) Ishlab chiqaruvchi qo‘shimcha ma’lumotni asosiy belgining ostida yoki yon tomonida, aniq belgilangan to‘rtburchaklar tashqarisida taqdim etishi mumkin, ular faqat ushbu ilovaning 38-bandining a)-kichik bandida keltirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqaruvchi yorlig‘ining namunasi ushbu xavfsizlik talablariga 6-ilovada keltirilgan.

**39. Traktorlar identifikasiya raqami**

a) Traktor identifikasiya raqami ishlab chiqaruvchi tomonidan har bir traktorga tayinlangan belgilarning qat’iy birikmasidir. Uning maqsadi - har bir traktor ishlab chiqaruvchisi tomonidan 30 yil davomida aniq identifikasiya qilinishiga kafolatdir.

b) Identifikasiya raqami ishlab chiqaruvchining yorlig‘ida va traktorlarning old o‘ng tomonidagi rama yoki boshqa konstruktiv elementda belgilanishi kerak.

- d) Identifikator raqami iloji boricha bitta qatorga joylashtirilishi kerak.
- e) Identifikatsiya raqami aniq ko‘rinadigan va oson yondoshuv mumkin bo‘lgan joyga joylashtirilishi, uni o‘chirilmasligi yoki shikastlanmasligi uchun zarb bilan yoki o‘yib yozilishi kerak.

#### 40. Belgilar

a) Ushbu ilovaning 38-bandida nazarda tutilgan markalash mamlakat ichki bozoriga davlat tilida, eksportga tegishli davlat tilida, shuningdek ingliz yoki rus tilida xam amalga oshiriladi. Ushbu ilovaning 38-bandi va 39-bandlarida nazarda tutilgan belgilar uchun arab raqamlari qo‘llanilishi kerak.

b) Traktorlar identifikatsiya raqamini belgilashda lotin bosh harflaridan foydalanish kerak, bunda “I”, “O”, “Q” harflaridan, chiziqcha, yulduzcha va boshqa maxsus belgilardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Harflar va raqamlarning minimal balandligi quyidagicha:

traktor va o‘zi yurar mashinalarning ramasiga yoki boshqa shunga o‘xhash tuzilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladigan belgilar uchun 7 mm;

ishlab chiqaruvchi yorlig‘iga qo‘llaniladigan belgilar uchun 4 mm.

### **X- bob. Tirkama tormoz tizimini boshqarishga va g‘ildirakli traktorlarning tirkama tormoz uzatgichini ulash qurilmasiga qo‘yiladigan talablar**

41. Traktor tirkamalar tormozlari uchun pnevmatik va (yoki) gidravlik tormoz bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. T3 toifasidagi traktorlar tirkama tormozlari uchun mexanik tormozdan foydalanishga ham ruxsat beriladi.

Pnevmatik va (yoki) gidravlik uzatmali tormoz bilan jihozlangan traktorlar va tirkamalar konstruksiyasi, tormozlarning operatorning ish joyidan traktor poyezdining bir qismi sifatida traktorlar va tirkamalarning belgilangan tormoz tizimlari uchun yagona boshqaruvi elementini ta’minlashi kerak.

42. Amaldagi tormoz tizimlari g‘ildirakli qishloq xo‘jaligi traktorlari va tirkamalarini tormozlash moslamalari uchun BMT № 13 qoidasida berilgan xususiyatlarga mos bo‘lishi mumkin.

Tormoz tizimlari tirkama tormozi ishlamay qolganda yoki ulanishlarda yorilish bo‘lganda traktor va tirkama xavfsiz to‘xtab qolishi uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

43. Agar traktor va tirkamada pnevmatik yoki gidravlik yoxud kombinatsiyalashgan uzatmali tormoz o‘rnatilgan bo‘lsa, u quyidagi shartlarga javob berishi kerak.

#### a) Gidravlik uzatma

Ikki o‘tkazuvchili gidravlik uzatmali tormozdan foydalanishga ruxsat beriladi.

Gidravlik ulash moslamasi Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak, quchoqlab oluvchi yarim mufta traktorga o‘rnatilishi kerak.

Tirkama tormozini boshqarish organi, ishlamaydigan holatda ulash kallagida bosim bo‘lmasligini ta’minlashi kerak, ish bosimi kamida 10 MPa va 15 MPa dan oshmasligi kerak.

Energiya manbai dvigateldan uzilmasligi kerak.

#### b) Pnevmatik uzatma

Tirkama tormozlarining pnevmatik uzatmasi ikki o'tkazuvchi turda bo'lishi kerak, xususan tormozlash jarayoni boshqaruv magistralida bosim oshganida boshlanishi lozim.

Traktoring bir qatorli pnevmatik uzatmasiga ularish uchun tirkamaning bir qatorli pnevmatik uzatmasini o'rnatishga ruxsat beriladi.

Ulanish boshi Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo'lishi kerak.

Tirkama tormoz boshqaruvi ularish boshida 0,65 MPa dan kam bo'limgan va 0,8 MPa dan ko'p bo'limgan maksimal bosimni ta'minlashi kerak.

d) Pnevmatik, gidravlik va kombinatsiyali tirkama tormoz uzatmalarining konstruksiyasi tirkama traktordan favqulodda uzilib qolganda tirkamaning tormozlanishini ta'minlashi kerak.

## **XI- bob. Traktorlarning orqa ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisini o'rnatish uchun joy talablari**

44. Orqa ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisini o'rnatish uchun joyning konfiguratsiyasi va o'lchamlari.

Orqa ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisini o'rnatish joyi, uni o'rnatish uchun yetarli o'lchamdagisi tekis, vertikal sirt bo'lishi kerak.

45. Orqa ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisini o'rnatish joyi va mahkamlanishi.

Orqa ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisini o'rnatish joyi shunday bo'lishi kerakki, ro'yxatga olish belgisi to'g'ri biriktirilganda quyidagi shartlar bajariladi.

a) Traktor (tirkama)larning kengligiga nisbatan ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisining holati.

Ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisining markazi traktorlar simmetriya tekisligining o'ng tomonida joylashmasligi kerak.

Ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisining chap qirrasi vertikal tekislikning chap tomonida traktor (tirkama)larning simmetriya tekisligiga parallel xolda va traktor (tirkama)larning kengligi bo'yicha eng bo'rtib chiqadigan qismida joylashgan bo'lishi mumkin emas.

b) Traktor (tirkama)lar simmetriyasining uzunlama tekisligiga nisbatan ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisining holati.

Ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisi traktor (tirkama) simmetriyasining bo'ylama tekisligiga perpendikulyar yoki amalda perpendikulyar joylashishi kerak.

d) Ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisining vertikal tekislikka nisbatan holati

Ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisi  $5^{\circ}$  cheklanish bilan vertikal ravishda joylashtirilishi kerak. Shunga qaramay, agar traktor (tirkama) konfiguratsiyasi talab qilsa, ro'yxatga olish (davlat raqami) belgisi vertikalga burchak ostida joylashgan bo'lishi mumkin:

ro'yxatga olish belgisining yuqori qirrasi tayanch yuzasidan 1,20 m dan yuqori bo'limgan balandlikda joylashgan bo'lish sharti bilan ro'yxatga olish belgisining ustki qismi oldinga  $30^{\circ}$  dan ortiq bo'limgan burchak ostida egilganida;

ro‘yxatga olish (davlat raqami) belgisining yuqori qirrasi tayanch yuzadan 1,20 m dan balandlikda joylashgan bo‘lish sharti bilan ro‘yxatga olish (davlat raqami) belgisining yuqori qismi orqaga  $15^{\circ}$  dan ortiq bo‘lmagan burchak ostida burilganda.

e) Tayanch sirt ustidagi ro‘yxatga olish (davlat raqami) belgisining balandligi

Tayanch sirt ustida ro‘yxatga olish (davlat raqami) belgisining pastki qirrasi kamida 0,3 m balandlikda, yuqori qirrasi esa 4 m dan ortiq bo‘lmagan balandlikda joylashgan bo‘lishi kerak.

f) Tayanch sirt ustidagi ro‘yxatga olish (davlat raqami) belgisining balandligini aniqlash

Ushbu ilova 45-bandining d)-kichik bandi va e)-kichik bandlarida ko‘rsatilgan balandlikni traktorlarda asosiy jihozlar o‘rnatilgan (shu jumladan ag‘darilganda himoya qilish moslamalari va qo‘shimcha aksessuarlar bundan mustasno), o‘rindiqdagi yuk bilan, massasi operator massasiga muvofiq ( $75 \pm 10$ ) kg, yoqilg‘i-moylash materiallari va sovutish suyuqligi bilan tegishli sig‘imlar to‘liq yuklangan xolatda o‘lchanishi kerak.

## **XII- bob. Traktor tormoz tizimlariga qo‘yiladigan talablar**

46. Qishloq xo‘jaligi g‘ildirakli traktorlarining tormoz tizimlari quyidagilarni ta’minlashi kerak:

tormoz masofasi (sovuq tormozli traktorlar uchun), formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_0 \leq 0,15 V_0 + \frac{V_0^2}{116},$$

¶

bu yerda  $S_0$  – tormoz yo‘li uzunligi, m;

$V_0$  — tormozlanish momentidagi tezlik, km/soat;

tormozlash paytida harakatning to‘g‘ri chiziqli emasligi 0,5 m dan oshmaydi; traktorni qiyalikda to‘xtatish va ushlab turish - 18%.

47. O‘rmon xo‘jaligi g‘ildirakli traktorlarining tormoz tizimlariga qo‘yiladigan talablar Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak.

48. G‘ildirakli traktorlar asosidagi traktor poyezdlarining tormoz tizimlari traktor poyezdini 12% qiyalikda to‘xtatish va ushlab turishni ta’minlashi kerak.

49. O‘rmon xo‘jaligi zanjir yuritmali traktorlarining tormoz tizimlariga qo‘yiladigan talablar Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak.

Sinov paytida traktor uchun hujjatlarga muvofiq qishloq xo‘jaligi zanjir yuritmali traktorlarining tormoz tizimlariga qo‘yiladigan talablar Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak

## **XIII- bob. Traktorlar va tirkamalar konstruksiyasiga qo‘shimcha talablar**

50. Traktorlarni yong‘indan himoya qilishga qo‘yiladigan talablar

Traktorlarning yong‘inga qarshi himoyasi Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak (ichki bezak uchun ishlataladigan materiallarga nisbatan) muvofiq bo‘lishi kerak.

Traktorlarda yong‘in o‘chirgichni o‘rnatish uchun joylar bo‘lishi kerak.

51. Traktorlar va tirkamalarning gidrouzatmasiga qo‘yiladigan talablar

Traktorlar va tirkamalarning gidrouzatmasi Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak.

52. Ekspluatatsiya vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun talablar

Ishlash, texnik xizmat ko‘rsatish yoki tashish paytida xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan traktor va tirkamaning konstruktiv elementlari ogohlantiruvchi rangga ega bo‘lishi kerak. Signal ranglari va xavfsizlik belgilari Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak.

Konstruksiyasi bog‘lab qo‘yish uchun noqulay bo‘lgan traktorlar va tirkamalar va ularning komponentlarini ko‘tarish, xavfsizlik zanjirlarini ulash va domkratlarni o‘rnatish vaqtida bog‘lash uchun moslamalar yoki joylar bo‘lishi kerak. Xavfsizlik zanjirlarini bog‘lash va ulash sxemalari traktor va tirkamada, shuningdek ekspluatatsiya qo‘llanmasida ko‘rsatilishi kerak. Zanjir yuritmali traktorlar uchun faqat ekspluatatsiya qo‘llanmasida xavfsizlik zanjirlarini ulash sxemalari va joylarini ko‘rsatishga ruxsat beriladi. Domkratlarni o‘rnatish va xavfsizlik zanjirlarini ulash joylari traktor va tirkamada Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga muvofiq belgililar bilan belgilanadi (2.30 "ko‘tarish nuqtasi" belgisi va 2.31 "domkrat o‘rnatish yoki tayanch nuqtasi" belgisi).

#### **XIV- bob. Traktorlar kabinalariga qo‘srimcha talablar**

53. Kabinada mikroklimat yaratish

a) Kabina, yilning sovuq va issiq mavsumlarida ichki mikroiqlim parametrlarini ta’minlaydigan, quyidagi umumiylar minimal ishslash ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan mikroiqlimni normallashtirish moslamasi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak:

kabina ichida ortiqcha bosim kamida 50 Pa, lekin 200 Pa dan oshmasligi kerak;

kondisionerlik, isitish yoki shamollatishning barcha sharoitlarda operatorning ish joyiga kamida 43 m<sup>3</sup>/soat toza filtrlangan havo yetkazib berilishi kerak;

operator atrofidagi haroratni o‘lchash natijalari kondisionerlik, isitish yoki shamollatishning barcha rejimlarida texnik hujjatlarda belgilangan parametrlardan 5° C dan ortiq farq qilmasligi kerak;

kabina ichiga yetkazib berilayotgan havo kamida 96% samaradorligi bo‘lgan filtrdan o‘tishi kerak;

operatorning ko‘zlari oldida havo harakatining maksimal tezligi 0,2 m/s dan oshmasligi tavsiya etiladi. Kabina ichki havo oqimining yo‘nalishi va tezligini tartibga soluvchi qurilma bilan jihozlangan bo‘lishi kerak;

kondisioner tizimi operatorning ish joyidagi haroratning qulaylik zonasiga (nisbiy namlik 60-40%, havo harorati 23-25° C) tushishini ta’minlashi kerak;

isitish tizimi operatorning ish joyidagi haroratning qulaylik zonasiga ko‘tarilishini ta’minlashi kerak (nisbiy namlik 60-40%, havo harorati 18-20° C);

shamollatish tizimining minimal xarakteristikalari ushbu bandning "a", "b", "c", "d" va "e" kichik bandlarida ko‘rsatilgan qiymatlarga mos kelishi kerak.

54. Traktorlar kabinasida birinchi tibbiy yordam to‘plami, operatorning tashqi kiyimi va texnik hujjatlarini joylashtirish uchun joy bo‘lishi kerak.

55. Traktorlar kabinasi old oyna yuvish qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

56. Traktorlar kabinasi operatorning yuzini to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan himoya qiladigan qurilma bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

57. Traktorlar kabinasining ochiladigan oynalari ichkaridan ochilishi va ularni ochiq va yopiq holatda fiksatsiya qilish qurilmasiga ega bo‘lishi kerak.

58. Traktorlar kabinasining eshiklarida kalit bilan qulflanadigan qulflar va ularni to‘liq ochiq holatda ushlab turish uchun fiksator bo‘lishi kerak.

59. Kabinada operator ish o‘rnida shovqin darajasi 84 dBA dan oshmasligi kerak, при испытании без нагрузки или 90 дБА при испытании под нагрузкой.

### **XV- bob. Ag‘daruvchi tirkamalarga qo‘shimcha talablar**

60. Ag‘daruvchi tirkamalar va yarim tirkamalar platformaning ruxsat etilgan eng yuqori ko‘tarilgan holatidan oshib ketmaydigan qilib loyihalashtirilishi kerak.

61. Ag‘daruvchi tirkamalar va yarim tirkamalar tushirilmagan platformani ko‘tarilgan holatda (tomonlardan biriga va orqaga yoki faqat orqaga, agarda yonboshga ag‘darish bo‘lmasa,) tutib turish uchun moslama (tirgak) bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

### **XVI- bob. Traktorlar va tirkamalarning barqarorligi talablari**

62. Traktorlar va tirkamalarning ko‘ndalang statik barqarorligi burchagi ulardan foydalanish toifalari va shartlariga qarab belgilanadi:

traktorlar uchun - Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak;

tirkamalar uchun - Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga mos bo‘lishi kerak.

63. Texnik ta’riflar shakli ushbu xavfsizlik talablariga 2-ilovada keltirilgan.

64. Ishlab chiqaruvchi tomonidan tog‘li yerlarda yoki tog‘li relefga ekvivalent sharoitlarda (tepalik, balandlikning o‘zgarishi bilan bog‘liq murakkab relef va boshqalar) ishlashi mo‘ljallangan traktorlar ruxsat etilgan chegara kren signali moslamalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak (ruxsat etilgan chegara kren).

Ruxsat etilgan chegara kren (ruxsat etilgan chegara krenlar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar traktorni ekspluatatsiya qo‘llanmasida keltiriladi.

### **XVII- bob. Traktor dvigatellarining chiqindi gazlari tarkibidagi zararli moddalarga qo‘yiladigan talablar**

65. Ushbu xavfsizlik qoidalari 3-ilovasiga muvofiq qishloq xo‘jaligida ishlataladigan “T” toifali traktorlarga o‘rnataladigan NRE (BMT 96-2 qoidasi) toifali siqish xisobiga olovlanadigan dvigatellarining chiqindi gazlari tarkibidagi zararli moddalarning chiqitlari 1-jadvalda keltirilgan qiymatlardan oshmasligi kerak:

1-jadval

Traktor dvigatelinining foydali quvvati (P), kVt	Uglerod oksidi solishtirma chiqiti (SO),	Metansiz uglevodorodlarning solishtirma chiqiti (NMHC), g/kVt s	Azot oksidi solishtirma chiqiti (NOx), g/kVt s	Qattiq zarrachalar solishtirma chiqiti (PT), g/kVt s

	<b>g/kVt s</b>			
$130 \leq P \leq 560$	3,5	4,0		0,2
$86 \leq P < 130$	5,0	4,0		0,30
$66 \leq P < 86$	5,0	1,3	7,0	0,4
$38 \leq P < 66$	5,0	4,7		0,4
$19 \leq P < 38$	5,0	1,3	7	0,4

Dvigatellar quvvati BMT 24 qoidasi talablari doirasida o'chanadi.

### **XVIII- bob. Traktor boshqaruv organlariga qo'shimcha talablar**

66. Boshqarish organlarni harakatlantirish uchun operator qo'l va oyoqlarida qo'llashi kerak bo'lgan kuchlarga qo'yiladigan talablar 2-jadvalda belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

2-jadval.

#### **Traktorlar boshqaruv organlari harakati uchun qarshilik kuchlariga TALABLAR**

<b>Boshqaruv organlari</b>	<b>Qarshilik kuchlari qiymatlari, N</b>			
	<b>oyoqda boshqaruv</b>		<b>qo'lda boshqaruv</b>	
	<b>tavsiyaviy</b>	<b>maksimal</b>	<b>tavsiyaviy</b>	<b>maksimal</b>
Bosh ilashish muftasi	<b>60</b>	<b>100</b>	—	—
Uzatmalar qutisi: quvvat oqimi uzluksiz	—	—	60	—
quvvat oqimi uzilishli	—	—	160	—
Burilish mexanizmi: kuchaytirgichsiz	—	—	—	250
kuchaytirgich bilan: rul g'ildiragida	—	—	—	30
gidrostatik bilan rulda favqulodda holatlarda	—	—	—	600
haydashda tutqichlarda	—	—	40	60
Ishchi tormoz	200	600	160	200
To'xtab turish	—	—	<b>60</b>	<b>120</b>

tormozi				
Dvigatel vali aylanishlar chastotasi regulyatori	<b>30</b>	<b>40</b>	30	<b>60</b>
Deselerator	60	120	90	120
Gidrotizim taqsimlagichi:				
Mexanik uzatma (tutqich)	—	—	60	100
Elektrogidravlik uzatma:				
tutqich	—	—	15	30
knopka	—	—	1	5
gidravlik uzatma	60	75	20	60
mexanogidravlik uzatma	—	—	60	100
Quvvat uzatish vali	—	—	160	200
Boshqa organlar	—	250	—	150

67. Asosiy (tez-tez ishlatiladigan) qo‘l boshqaruv organlarining tutqichlari, shuningdek asosiy (tez-tez ishlatiladigan) pedallar qulaylik zonasida, xususan uzatmalar qutisi tutqichlari operator ish o‘rnining yon tomonida joylashgan bo‘lishi kerak. Qo‘l boshqaruv organlari yordamchi tutqichlari va pedallar turli balandliklardagi operatorlarning barcha ish xolatlari uchun qulay boshqariladigan bo‘lishi kerak, bunda operator oldinga va yon tomonlarga burilishi yoki egilishi mumkin.

68. Dvigatel ishlayotgan paytda rulda lyufti  $17^{\circ}$  dan oshmasligi kerak.

#### **XIX- bob. Dvigateli gazsimon yoqilg‘i bilan ta’minlash uchun qurilmalar va ularni o‘rnatishga qo‘yiladigan talablar**

69. 1958 yil 20 martda Jenevada tuzilgan g‘ildirakli transport vositalariga o‘rnatilishi va/yoki ishlatilishi mumkin bo‘lgan transport vositalari, jihozlar va ehtiyyot qismlari uchun yagona texnik shartlarni qabul qilish hamda ushbu talablar asosida berilgan ruxsatnomalarni o‘zaro tan olish shartlari to‘g‘risidagi Bitimga asosan chiqarilgan BMT №67 yoki BMT №110 qoidalariga muvofiq turini tasdiqlash to‘g‘risidagi xabar asosida berilgan muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan traktorlarga faqat gaz balloonli qurilmalar o‘rnatilishi mumkin.

a) Har bir gaz balloonida tasdiqlangan yagona shakldagi gaz balloonini ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan pasport bo‘lishi kerak.

b) Traktorga o‘rnatilgan har bir gaz balloonida uning seriya raqami va "Siqilgan tabiiy gaz" yoki "Cuyultirilgan neft gazi" belgisi o‘chirilmaydigan tarzda aniq yozilishi kerak.

70. Dvigatelni gazsimon yoqilg‘i (siqilgan tabiiy gaz, suyultirilgan neft gazi) (keyingi o‘rinlarda - energiya tizimi deb yuritiladi) bilan energiya tizimiga qo‘yiladigan talablar, uni joylashtirish va o‘rnatish

a) Energiya tizimining barcha elementlari o‘z o‘rniga to‘g‘ri (qat’iy) mahkamlangan bo‘lishi kerak.

b) Energiya tizimi tashqi shikastlanishdan maksimal darajada himoyalananadigan tarzda o‘rnatilishi kerak.

d) Energiya tizimiga hech qanday qurilma ulanmasligi kerak (mayjudligi traktor dvigateli va kabinani isitish tizimining to‘g‘ri ishlashini ta’minalash uchun qat’iy zarur bo‘lganlar bundan mustasno).

e) Traktorlar kabinani isitish tizimi bilan jihozlanishi mumkin. Kabinani isitish tizimining mayjudligi faqat yong‘inga chidamli bo‘lsa va energiya tizimining normal ishlashiga ta’sir qilmasa ruxsat etiladi.

f) Energiya tizimining hech qanday elementi, shu jumladan energiya tizimi qurilmasining bir qismi bo‘lgan har qanday himoya moslamasi (materiali) traktorning tashqi o‘lchamlaridan tashqariga chiqmasligi kerak.

g) Dvigatelning ishlatilgan gazlarni chiqarish tizimidan yoki shunga o‘xshash issiqlik manbasidan 100 mm masofada energiya tizimining hech qanday tarkibiy qismlari joylashtirilmasligi kerak, agar bunday energiya tizimining tarkibiy qismlari tegishli issiqlik qalqoni bilan ta’milanmagan bo‘lsa.

i) Energiya tizimi quyidagi jihozlarga ega bo‘lishi kerak:

ballon(lar);

manometr yoki yoqilg‘i sathini ko‘rsatgich;

xavfsizlik qurilmasi (ma’lum bir haroratda ishga tushiriladi);

balloonning avtomatik klapani;

qo‘lda boshqariladigan klapan;

bosim regulyatori;

gaz ta’mnoti regulyatori;

cheklovchi qurilma;

gaz-havo aralashtirgich;

to‘ldirish bloki yoki qism;

elektron boshqaruv bloki (elektron tizimlar uchun);

yoqilg‘i o‘tuvchi egiluvchan va qattiq quvurlar;

armatura.

j) Qo‘sishma avtomatik klapan bosim regulyatori bilan bir qism qilib yasalgan bo‘lishi mumkin.

Yoqilg‘i liniyasida bosim regulyatoriga imkon qadar yaqinroq bo‘lgan joyda qo‘shimcha avtomatik klapan o‘rnatalishi mumkin.

k) Ballon boshqa metall yuzalar bilan hech qanday kontakt bo‘lmaydigan tarzda o‘rnataladi, ballonning (ballonlarning) mahkamlovchi qismlar bilan kontakt qilishi bundan mustasno.

l) Traktor ishlashga tayyor bo‘lganda, gaz balloni va tayanch sirt (yer yuzasi) orasidagi masofa kamida 200 mm bo‘lishi kerak.

m) Avtomatik klapan to‘g‘ridan-to‘g‘ri har bir ballonga o‘rnataladi.

Ballonning avtomatik klapan shunday ishlashi kerakki, dvigatel o‘chirilganda, uni o‘t oldiruvchi kalitning holatidan qat‘i nazar, yoqilg‘i ta’mnoti zudlik bilan to‘liq to‘xtashi va yoqilg‘i ballonda yopiq holatda qolishi kerak. Diagnostik maqsadlarida ikki soniya kechikishga ruxsat beriladi.

n) Cheklash moslamasi yoqilg‘i balloonining avtomatik klapaniga o‘rnataladi.

o) Qo‘lda boshqariladigan klapan ballonga mahkam qilib o‘rnataladi va avtomatik klapanga ham o‘rnatalishi mumkin.

p) Yoqilg‘i o‘tkazuvchi qattiq quvurlar choksiz, zanglamaydigan yoki korroziyaga qarshi qoplamlami po‘lat materialdan tayyorlangan bo‘lishi kerak.

q) Qattiq va moslashuvchan yoqilg‘i liniyalari tebranish yoki tashqi kuchlar ta’siriga duchor bo‘lmaydigan tarzda mahkamlanishi kerak.

Maxkalash joyiga, egiluvchan yoki qattiq materiallik yoqilg‘i quvurlari metall qismlar bilan har qanday kontakt bo‘lmaydigan tarzda o‘rnatalishi kerak.

Egiluvchan yoki qattiq materiallik yoqilg‘i quvurlari domkrat o‘rnataladigan tayanchlar yaqinida joylashtirilmasligi kerak.

Ochiq joylarda yoqilg‘i quvurlari himoya material bilan qoplangan bo‘lishi kerak.

r) Kavsharlangan yoki payvandlangan ulanishlar, shuningdek, tiraluvchi gaykalik tishli birikmalar bilan ulanishlarga ruxsat berilmaydi.

Ulanishlar soni minimal bo‘lishi kerak.

Barcha ulanishlar tekshirish uchun qulay joylarda bo‘lishi kerak.

s) To‘ldirish moslamasi traktoring tashqi tomonida yoki dvigatel bo‘linmasida joylashgan bo‘lishi kerak.

To‘ldirish moslamasining mahkamlanishi uning o‘zidan o‘zi yechilib ketishining oldini olishi va uni ifloslik hamda namlikdan himoyalanishini ta’minlashi kerak.

t) Elektr ta’mnoti tizimi elektr jihozlari ortiqcha yuklanishlardan himoyalangan bo‘lishi kerak.

Elektr aloqalari va elektr jihozlari elementlarining konstruksiyasi elektr uchqunining paydo bo‘lish ehtimolini istisno qilishi kerak.

## **XX- bob. Yoritish va yorug‘lik signalizatsiya qurilmalariga**

### qo'shimcha talablar

71. Doimiy ochiq yoritish moslamalarini o'rnatish ularning maqsadiga mos kelmaydigan tirkamalarda har qanday yoritish moslamalari ochiladigan bo'lishi kerak, shu jumladan qo'lida ham ochilishi mumkin.

Bunday yoritish moslamalarini ishlatish tartibi ekspluatatsiya qo'llanmasida beriladi.

72. To'q sariq rangli yon yorug'likqaytprgichlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

73. Agar davlat qonunchiligidagi bunday talab bo'lmasa, "Sekin harakatlanuvchi transport vositasi" belgisini o'rnatmaslikka ruxsat etiladi.

### 6-ilova

Qishloq xo'jaligi traktorlari va ularning tirkamalari  
xavfsizligi to'g'risida talablargaga

#### **Traktor ishlab chiqaruvchi yorlig'i va texnik jihatdan maqbul tortish (buksir) massalarining tasnifi**

##### **1. Traktor ishlab chiqaruvchi yorlig'inining namunasi**

TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI	
Turi TAT DF-904	
Muvofiqlik sertifikati raqami XXXXXX	
Identifikatsiya raqami TAT DF 12223344	
Umumiy ruxsat etilgan massa*:	4 820-6 300 kg
Oldingi o'qga ruxsat etilgan massa*:	2 390-3 200 kg
Orqa o'qga ruxsat etilgan massa*:	3 130- 4 260 kg
* O'rnatilgan shinaga muvofiq	
Tirkamaning tortishga maqbul massasi	
- tormozsiz:	3 000 kg
- mustaqil tormozlanuvchi:	6 000 kg
- inersiya bilan tormozlanuvchi:	3 000 kg
- gidravlik yoki pnevmatik uzatmali tormoz:	12 000 kg

##### **2. Texnik jihatdan maqbul tortish massalarining tasnifi**

Tirkamalarning texnik jihatdan maqbul quyidagi massalari hisobga olinadi:

- a) Tormozsiz tirkama massasi.
- b) Mustaqil tormozlash bilan tirkama massasi, ya’ni mashina-traktor agregatini quyidagi xususiyatlarga ega qurilmalar yordamida tormozlanadi:
  - tirkama tormozini boshqarish moslamasi traktor tormozi boshqaruvidan mustaqil va barcha hollarda traktorga shunday o’rnataladiki, uni operator o’z ish joyidan osongina boshqara oladi;
  - operatorning mushak kuchi tirkamani tormozlashga ishlatiladigan energiya deb hisoblanadi.
- c) Inersial tormozlash bilan tirkama massasi, ya’ni tirkama traktorga yaqinlashganda hosil bo’ladigan kuch yordamida tormozlanadi.
- d) Gidravlik, pnevmatik yoki kombinatsiyalik uzatmali tormoz tirkamanining massasi, ya’ni mashina-traktor agregatning tormozlanishi uzlusiz, yarim uzlusiz yoki mustaqil mexanizatsiyalashgan uzatmali bo’lishi mumkin.
- e) mashina-traktor agregatini uzlusiz tormozlash quyidagi xususiyatlarga ega qurilma yordamida amalga oshiriladi:
  - yagona boshqaruv organi, unga operator ish o’rnidan birgina yengil xarakat bilan ta’sir ko’rsatadi;
  - mashina-traktor agregatini tormozlash uchun sarflanadigan energiya bitta va faqat o’sha manbadan keladi (bu operatorning mushak kuchi bo’lishi mumkin);
  - tormoz tizimi traktor va tirkamani ularning nisbiy holatidan qat’i nazar bir vaqtning o’zida yoki bosqima-bosqich tormozlashni ta’minlaydi.
- f) mashina-traktor agregatini yarim uzlusiz tormozlash quyidagi xususiyatlarga ega qurilma yordamida amalga oshiriladi:
  - yagona boshqaruv organi, unga operator ish o’rnidan birgina yengil harakat bilan ta’sir ko’rsatadi;
  - mashina-traktor agregatini tormozlash uchun sarflanadigan energiya bir nechta manbadan keladi (ulardan biri operatorning mushak kuchi bo’lishi mumkin);
  - tormoz tizimi traktor va tirkamani ularning nisbiy holatidan qat’i nazar bir vaqtning o’zida yoki bosqima-bosqich tormozlashni ta’minlaydi.
- g) mashina va traktor agregatini mustaqil mexanizatsiyalashgan uzatma bilan tormozlash quyidagi xususiyatlarga ega qurilma yordamida amalga oshiriladi:
  - tirkama tormozini boshqarish qurilmasi traktor tormozi boshqaruvidan mustaqil va barcha hollarda traktorga shunday o’rnataladiki, uni operator o’z ish joyidan osongina boshqara oladi;
  - operatorning mushak kuchi tirkamanining tormozlanishi uchun ishlatiladigan energiya emas.

3. Ishlab chiqaruvchi tomonidan o’rnatilgan texnik maqbul tortish massasi va maqbul tortish massasi o’rtasidagi farq ushbu xavfsizlik talablariga 5-ilovaning VIII bob

36-bandida keltirilgan.

## **Qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashinalar hamda kichik o‘lchamli traktorlarning xavfsizligi to‘g‘risida qoidalar**

### **I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu xavfsizlik qoidalari inson hayoti yoki sog‘lig‘ini, mol-mulkini himoya qilish, atrof muhitni, hayvonlar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, iste’molchilarini chalg‘ituvchi harakatlarning oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashina hamda kichik o‘lchamli traktor (keyingi o‘rinlarda -texnika)larni ishlab chiqarish, o‘rnatish, ishga tushirish, ishlatish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilishda ularga qo‘yiladigan minimal xavfsizlik talablarini belgilaydi.

2. Ushbu xavfsizlik qoidalari quyidagilarga taalluqli emas:

traktorlar;

tirkamalar;

traktorlar va tirkamalarning komponentlariga;

Ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirgunga qadar muomalaga chiqarilgan va foydalaniilgan qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashina hamda kichik o‘lchamli traktorlar hamda ularni ishlab chiqarish, o‘rnatish, ishga tushirish, ishlatish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish jarayonlariga;

amalda ishlab chiqarilgan, biroq muomalaga kiritilmagan va foydalaniilmagan, xususan, ishlab chiqaruvchining omborxonasida saqlanayotgan qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashina hamda kichik o‘lchamli traktorlar.

3. Ushbu xavfsizlik qoidalariда quyidagi asosiy atama va tushunchalar qo‘llaniladi:

**qishloq xo‘jaligi texnikalari** - qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik, melioratsiya va o‘rmonchilik) ishlarini bajaradigan traktorlar va uning tirkamalari, o‘ziyurar mashinalar, kichik o‘lchamli traktorlar, qishloq xo‘jaligi mashinalari;

**o‘ziyurar mashinalar** – g‘ildirak yoki zanjir yuritmali, tashqi energiya vositalarisiz ishlash jarayoni harakatini ta’minlaydigan va ichki yonuv dvigateli energiya manbai bo‘lib xizmat qiladigan dehqonchilik, melioratsiya va o‘rmonchilikda ishlatiladigan texnikalar;

**kichik o‘lchamli traktor** – kuchlanishi 250 V dan ortiq bo‘lmagan elektr yoki quvvati 19 ot kuchiga qadar bo‘lgan ichki yonuv dvigatelli bir o‘qli shassili va yon tomonida yuruvchi inson tomonidan boshqariladigan motoblok;

**qishloq xo‘jaligi mashinalari** – dehqonchilikda ekin ekish oldidan tuproqqa ishlov berish, urug‘ ekish va nihol o‘tqazish, ekinlarni parvarish qilish, sug‘orish, o‘g‘itlash, zararkunandalarga qarshi ishlov berish va defoliatsiya, o‘rim-yig‘im, hosilni o‘rim-yig‘imdan keyin qayta ishlash, hayvonlarga ozuqa tarqatish va ularni parvarish qilish; melioratsiyada tuproqni chuqr yumshatish, yer tekislash, tuproqni qatlam-qatlam

kesib surish (skreperlash), drenaj tizimlari hamda o‘rmonlarni qayta tiklash va daraxt (buta va boshqa)larni parvarish qilish bo‘yicha texnologik ishlarini traktor yoki motoblokga osib yoki taqib ishlatiladigan texnikalar;

**avariya** – foydalanish jarayonida texnikalarda to‘satdan buzilish yoki shikastlanish yoxud yonib ketish holatlari yuzaga kelishi;

**belgilangan resurs** – filtr va yog‘lash materiallari hamda ayrim detallarga nisbatan ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan almashtirilish muddat;

**ishdan chiqish** – loyihalashda konstruktiv buzilishlar, belgilangan ishlab chiqarish yoki texnik xizmat ko‘rsatish yoxud ta‘mirlash jarayoniga amal qilmaslik, foydalanish bo‘yicha qoidalar yoki ekspluatatsiya qo‘llanmasi (yo‘riqnomani) talablarini bajarmaslik oqibatida texnikaning ishga yaroqlilik holatidagi buzilishlardan iborat bo‘lgan hodisa;

**ishlab chiquvchi (loyihalovchi)** – yangi turdagи texnikalarni yaratish, tajriba namunasi uchun texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tajriba namunasini ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**ishlash muddati** – texnikalarning ishslash davomiyligi yoki hajmi;

**mashina-traktor agregati** – qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun xos traktorga tegishli qishloq xo‘jaligi mashinasini taqish bilan tashkil etilgan birikma

**texnikadan maqsadga muvofiq foydalanish** – texnikadan ishlab chiqaruvchi tomonidan foydalanish hujjatlarida belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish;

**ruxsat etilgan xavf** – ishlab chiqaruvchining texnik-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulot siklli jarayonning barcha bosqichlarida ta‘minlanishi lozim bo‘lgan xavfsizlik darajasiga mos texnikalardan foydalanish davomida yuzaga keladigan xavfning qiymati;

**xavf** – inson hayoti va sog‘lig‘iga, mol-mulkiga, atrof muhitga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar manbai;

**xavfli nosozlik** – texnikalarning, oqibatlari inson hayoti yoki sog‘lig‘iga, mol-mulkiga, atrof muhitga, hayvon va o‘simliklar hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ishdan chiqishi;

**xavfsizlik asosnomasi** – texnikalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarining, shuningdek ta‘mirdan keyingi barcha bosqichlarida xavfni baholash natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladigan xavf tahlilini, shuningdek, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha minimal zarur choralar to‘g‘risidagi konstruktorlik, ekspluatasion, texnologik hujjatlar ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan hujjat;

**xavf-xatar** – zarar yetkazish ehtimoli va bu zararning inson hayoti yoki sog‘lig‘i, mol-mulki, atrof muhit, hayvonlar va o‘simliklarga salbiy oqibatlari birikmasi;

**hayotiy jarayon** – texnikani loyihalashtirish boshlangandan boshlab o‘zaro bog‘liq bosqichlarni (loyihalash, ishlab chiqarish, saqlash, o‘rnatish, ishga tushirish, ekspluatatsiya qilish, shu jumladan, modernizatsiya qilish, ta‘mirlash, texnik va servis xizmat ko‘rsatish) o‘z ichiga olgan vaqt;

**hodisa** – texnikalarning ishdan chiqishi, texnologik jarayon rejimidan chetga chiqishi;

**cheгаравий holat** – texnikaning undan keyinchalik foydalanish imkoni bo‘lmagan yoki maqsadga muvofiq bo‘lmagan yohud ularning ishga yaroqlilik holatini qayta tiklash imkoni bo‘lmagan holati;

**xavfni nidentifikatsiyalash** - bu har bir texnikada inson, xayvon va atrof muxitga zarar etkazilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar joyi (shu jumladan ularning kombinatsiyasi) va o'ziga xosligini aniqlash jarayoni;

**texnikani identifikatsiyalash** - ushbu talablarda belgilangan muhim belgilarga muvofiqligini baholash uchun taqdim etilgan texnikaning o'ziga xosligini aniqlash;

**utilizatsiya** - foydalanish imkonsiz yoki samarasiz bo'lgan texnikalarni ixtisoslashgan ustaxonalarda qism va detallarga bo'laklash, ularni yaroqli, ta'mirlashga ehtiyojmand va yaroqsizlarga ajratish hamda xisobdan chiqarish jarayoni;

**ekspluatatsiya qo'llanma(yo'riqnomasi)** - texnikalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni tavsiflovchi texnik hujjat. U texnikani ishlab chiqaruvchi korxona mutaxassislari tomonidan ishlab chiqiladi;

**diagnostika** – texnikalarning holatini ekspluatatsiya qo'llanmasida belgilangan davrlarda kuzatish, nosoz (nuqson) joyini qidirish va uning sabablarini aniqlash ishlari;

**konservatsiya** – texnikani qishloq xo'jaligi ishlari mavsumi oraliqlarida uzoq muddatli saqlashga tayyorlash. U texnikani tozalash, moylash, yonilg'isini to'kib olish, xarakat uzatish remenlari va zanjirlarini salqi qilish, g'ildiraklarini yer sathidan ko'tarib qo'yish va ochiq havo ta'siri bo'lishi mumkin bo'lgan faol yuzalarni ximoyalash kabi ishlardan iborat. Texnikani to'g'ri konservatsiya qilish keyingi mavsumda undan samarali foydalanishni kafolatlaydi;

**professional foydalanuvchi** – texnikalardan foydalanish yo'nalishidagi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida zarur bo'lgan malaka talablarini o'zlashtirgan va tegishli kasb bo'yicha vazifalarni bajarishga ruxsat berilgan mutaxassis;

**professional bo'limgan foydalanuvchi** – tegishli ta'lim muassasalarida zarur bo'lgan malaka talablarini o'zlashtirmsandan kichik o'lchamli traktorlardan o'z tasarrufida bo'lgan ekin maydonlarida tuproqga ishlov berish va ekinlarni parvarishlash ishlarini bajaruvchi shaxs;

**muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya** - ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat.

4. Ushbu xavfsizlik qoidalarida belgilangan muvofiqlikni tasdiqlash tartib-taomillaridan o'tgan texnikalar O'zbekiston Respublikasi bozorida muomalaga chiqariladi.

5. Ushbu xavfsizlik Ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligi tasdiqlanmagan texnikalar muomalaga chiqarilishi ta'qilanganadi.

## **II-bob. Xavfsizlik talablari**

6. Texnikalarning konstruksiyasi ularning foydalanish jarayonlarining barcha bosqichlarida xavfsizlikni ta'minlab berishi kerak

7. Texnikalarga qo'llaniladigan xavfsizlik talablari 1 - ilovada keltirilgan.

## **III-bob. Ishlab chiqish (loyihalash) davrida texnikalarning xavfsizligini ta'minlash**

8. Texnikalarni ishlab chiqish (loyihalash) jarayonning barcha bosqichlarida mumkin bo'lgan xavflar identifikasiyalishi kerak.

9. Identifikatsiyalangan xavf turlari uchun xavfni baholash – hisoblash, eksperiment va ekspertiza yo‘li bilan yoki aynan shunga o‘xshash texnikalardan foydalanish ma’lumotlari bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Xavfni baholash usullari ushbu xavfsizlik ushbu xavfsizlik qoidalarining 34-bandida ko‘rsatilgan standartlarda belgilanishi mumkin.

10. Ishlab chiqish (loyihalash) jarayonida texnikalar uchun joiz xavf aniqlanishi va belgilanishi kerak. Bunda belgilangan xavfga mos keladigan xavfsizlik darajasi quyidagilar bilan ta’minlanadi:

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarining to‘liqligi;

belgilangan tartibda tekshirilgan usullarga asoslangan zarur hisob-kitoblar va texnik jihatdan tartibga solish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq sinovlarni amalga oshirish;

parametrlari va foydalanish sharoitlariga bog‘liq holda texnikalarning alohida turlarida ishlataladigan materiallar va moddalarni tanlash;

ishlab chiquvchi (loyihalovchi) tomonidan chegaraviy holatlarning mezonlari belgilanishi;

ishlab chiquvchi (loyihalovchi) tomonidan belgilangan xizmat muddati, belgilangan resurslar, texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va utilizatsiya muddatlari belgilanishi;

texnikadan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq barcha xavflarni aniqlash;

texnikalardan foydalanishni cheklash.

11. Agar baholangan xavf ruxsat etilgan chegaradan yuqori bo‘lsa, uni kamaytirish uchun texnikaning loyihasi o‘zgartirilishi kerak. Bunda texnikaning barcha ish rejimlariga xodimlarning aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi, foydalanish bo‘yicha qo‘llanmada (yo‘riqnomada) nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

12. Loyihani o‘zgartirish orqali texnikaning ruxsat etilgan xavfni belgilaydigan texnik tavsiflariga erishish imkonini bo‘lmasa, shuningdek, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmasa, foydalanish bo‘yicha qo‘llanmada (yo‘riqnomada) ushbu texnikalardan foydalanishni cheklaydigan choralar yoki xavfsizlikni ta’minlash choralarini ko‘rilishi zarurligi to‘g‘risida ogohlantiruvchi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

13. Texnikalarni ishlab chiqish (loyihalash)da fizik omillar darajalari (shovqin, infratovush, havo va munosabatli ultratovush, mahalliy va umumiyl vibratsiya, elektromagnit maydonlar darajasi), shuningdek, ulardan foydalanish vaqtida xavfsizlikni ta’minlovchi xavfli va zararli moddalarni chiqarish darajalari belgilanishi kerak.

14. Texnikani ishlab chiqish (loyihalash)da xavfsizlik asosnomasini ishlab chiqish kerak.

Texnikalar uchun xavfsizlik asosnomasi asl nusxasi ishlab chiquvchi (loyihalovchi)da, nusxasi esa texnikani ishlab chiqaruvchida hamda texnikalarni ishlataladigan tashkilotda saqlanadi.

15. Ekspluatatsiya bo‘yicha qo‘llanma (yo‘riqnomasi)ni ishlab chiqish texnikani ishlab chiqish (loyihalash)ning ajralmas qismi hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

texnikalar konstruksiysi, ishlash prinsipi, tavsif (xususiyat)lari haqida ma’lumot;

texnikani o‘rnatish yoki yig‘ish, sozlash yoki rostlash, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha ko‘rsatmalar;

texnikani ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalar va texnikadan foydalanish paytida rioya etilishi shart bo‘lgan xavfsizlik choralar, shu jumladan, ishga tushirish, maqsadli foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish, barcha turdag'i ta’mirlash, davriy diagnostika, sinov, tashish, qadoqlash, konservatsiya qilish va saqlash shartlari;

konstruktiv xossalariiga bog‘liq holda belgilangan ko‘rsatkichlar. Belgilangan ko‘rsatkichlar to‘g‘risida qaror qabul qilinadi;

xavfli ishdan chiqishlar ro‘yxati, xodimlarning hodisa yoki avariya olib keladigan mumkin bo‘lgan xato harakatlari;

hodisa, xavfli ishdan chiqish yoki avariya holati yuz bergan taqdirda xodimlarning harakatlari;

chegaraviy holatlar mezonlari;

foydalanishdan chiqarish va utilizatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar;

xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning malakasi to‘g‘risida ma’lumot.

16. Agar texnikalar professional bo‘lmagan foydalanuvchilar tomonidan ishlatilishiga mo‘ljallangan bo‘lsa, foydalanish bo‘yicha qo‘llanma (yo‘riqnomada bunday foydalanuvchilarining bilimlari, ko‘nikmalari va tajribalari hisobga olinishi kerak.

#### **IV-bob. Ishlab chiqarish, saqlash, tashish, ishlatish va utilizatsiya qilish vaqtida texnikalarning xavfsizligini ta’minlash**

17. Texnikani ishlab chiqarishda uning loyihalash hujjatlari va ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligi ta’minlanishi kerak.

18. Te’nikani ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchi loyihalash hujjatlari bilan belgilangan xavfsizlik choralarining butun majmuini bajarishi kerak, shuningdek, xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan barcha texnologik operatsiyalarning bajarilishini nazorat qilish imkoniyati ta’minlanishi lozim.

19. Texnikani ishlab chiqarishda loyihalash hujjatlarida nazarda tutilgan sinovlar o‘tkazilishi kerak.

20. Texnikani ishlab chiqarish ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiq loyihalash hujjatlari bilan belgilangan xavfsizlik talablari qo‘llaniladigan texnologik jarayonlar va boshqaruv tizimlarini hisobga olgan holda bajarilishi lozim. Ishlab chiqaruvchi ularni muomalaga chiqarishdan oldin texnikalarning xavflar bo‘yicha baholanishini amalga oshirishi lozim.

21. Texnikani ishlab chiqarishda loyihalash hujjatlaridan chetga chiqishlar ishlab chiquvchi (loyihachi) bilan kelishilgan bo‘lishi kerak. Kelishilgan loyiha hujjatlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan texnikadan foydalanish xavfi ishlab chiquvchi (loyihachi) tomonidan belgilangan ruxsat etilgan xavfdan yuqori bo‘lmasligi shart.

22. Texnikani ishlab chiqaruvchi uni ishlatish uchun ekspluatatsiya qo‘llanma (yo‘riqnomasi bilan ta’minlashi shart.

23. Texnikada xavf turlari to‘g‘risida aniq va o‘chirilmaydigan ogohlantirish xabarlar yoki belgilar bo‘lishi kerak.

Texnikada quyidagilarni o‘z ichiga olgan aniq o‘qilishi mumkin bo‘lgan va o‘chirilmaydigan identifikatsiya yozuvi bo‘lishi kerak:

ishlab chiqaruvchining nomi va (yoki) savdo belgisi;

texnikaning nomi va (yoki) belgilanishi (turi, markasi, modeli (agar mavjud bo'lsa);

ishlab chiqarilgan oy va yil.

24. Ushbu xavfsizlik qoidalarining 22-bandida keltirilgan ma'lumotlarni texnikaga tatbiq etish mumkin bo'lmasa, u holda ular faqat ushbu texnikaga biriktirilgan ekspluatatsiya qo'llanmasi (yo'riqnomada ko'rsatilishi mumkin. Bu holda ishlab chiqaruvchining nomi va (yoki) uning tovar belgisi, texnikaning nomi va belgilanishi (turi, markasi, modeli (agar mavjud bo'lsa) qadoqlarida ko'rsatilishi kerak.

25. Ushbu xavfsizlik qoidalarining 22-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada ishlab chiqaruvchining nomi (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs), import qiluvchi, ular bilan bog'lanish uchun ma'lumotlar bo'lishi kerak.

26. Ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada) davlat tilida tilida tayyorlanadi.

Ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada) qog'ozda bo'ladi. Bunga elektron tashuvchida tezkor hujjatlar to'plami ilova qilinishi mumkin.

27. Texnikalar uchun ishlatalidigan qadoqlash materiallari va moddalari xavfsiz bo'lishi kerak.

28. Texnikalarning uzel va qismlarini tashish hamda saqlash ishlab chiqish (loyihalash) va ekspluatatsiya hujjatlarida nazarda tutilgan xavfsizlik talablari hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

29. Texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tekshirishni texnikada amalga oshirishda ushbu ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada)ning texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash dasturida belgilangan talablarga doimiy ravishda rioya qilinishi kerak.

30. Texnikaning ularni ta'mirlash paytida zaruriyati bo'ladigan konstruktiv o'zgarishlari ishlab chiquvchi (loyihachi) bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

31. Texnikani mukammal ta'mirdan chiqargandan so'ng ularga ruxsat etilganidan yuqori xavf bo'lmasligini baholash uchun xavflarni baholash kerak. Agar kerak bo'lsa, qabul qilinadigan xavf qiymatlariga erishish uchun texnik va tashkiliy choralar ishlab chiqiladi.

32. Loyihalash hujjatlari talablariga javob bermaydigan ta'mirlangan texnikalar uchun tashkilotda qabul qilingan texnologik jarayonlar va boshqaruv tizimlarini hisobga olgan holda xavfsizlik asosnomasida belgilangan xavf qiymatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak.

33. Ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada) texnikani xavfsiz tarzda utilizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar belgilanishi kerak.

34. Texnikani ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma (yo'riqnomada) belgilangan resursga yoki belgilangan xizmat muddatiga yetganidan keyin undan boshqa maqsadlarda foydalanishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

## **V-bob. Xavfsizlik talablariga muvofiqlikni ta'minlash**

35. Texnikalarning xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash ushbu xavfsizlik qoidalarini bevosita bajarish, davlatlararo standartlarning xavfsizlikka doir talablarini bajarish, agar ular bo'lmasa (davlatlararo standartlar qabul qilinishidan oldin) – O'zbekiston Respublikasi milliy (davlat) standartlarining xavfsizlikka doir me'yorni qo'llash orqali ta'minlanadi.

Ushbu standartlar talablarini ixtiyoriy ravishda bajarish texnikalarning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini ko'rsatadi.

## **VI-bob. Muvofiqlikni baholash**

36. Bozorda muomalaga chiqarilgan texnikalarning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligi baholanishi shart.

Bunda ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqlikni baholash muvofiqlikni tasdiqlash shaklida (d) va davlat nazorati shaklida (c) amalga oshiriladi.

Ishlab chiqaruvchilarning o'z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan yoki ekspluatatsiyada bo'lgan texnikalar, shuningdek, ularni ta'mirlash (texnik xizmat ko'rsatish) uchun ishlatiladigan komponent (butlovchi va ehtiyyot qism)larning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini tasdiqlash talab etilmaydi.

## **VII-bob. Muvofiqlikni tasdiqlash**

37. Texnikalarning muvofiqligini tasdiqlash qonunchilik hujjatlarida tasdiqlangan yagona tartib-qoidalarga muvofiqliq amalga oshiriladi.

38. Texnikalarning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini tasdiqlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

texnikaning xavfsizlik talablariga muvofiqligi Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kirgan sertifikatlash organi (keyingi o'rnlarda – sertifikatlash organi) tomonidan muvofiqlik sertifikati bilan tasdiqlanadi;

texnikaning xavfsizlik talablariga muvofiqligi ishlab chiqaruvchining o'zi va (yoki) sertifikatlash organi ishtirokida yoxud Milliy akkreditatsiya tizimi reyestriga kiritilgan sinov laboratoriysi (markazi) (keyingi o'rnlarda - deklaratsiyalash organi) dalillari asosida muvofiqlik deklaratsiyasi bilan tasdiqlanadi.

39. Sertifikatlash 2- ilovada keltirilgan ob'yeqtalar ro'yxatiga kiritilgan texnikalarga nisbatan amalga oshiriladi.

40. Muvofiqlik deklaratsiyasi yer qazish va melioratsiya ishlari texnikalariga nisbatan amalga oshiriladi.

41. 40-bandda ko'rsatilgan texnikalarga nisbatan muvofiqlikni tasdiqlash deklaratsiyasi, ariza beruvchining deklaratsiya qilishga doir xujjalari mavjud bo'limganda yoki yetarli bo'limganda o'z xohishiga ko'ra tegishli deklaratsiya sxemasi o'rmini bosuvchi sertifikatlash sxemasi bo'yicha sertifikatlash organi orqali tasdiqlanishi mumkin.

42. Muvofiqlik deklaratsiyasi yoki muvofiqlik sertifikati texnikaning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini tasdiqlovchi yagona hujjatdir.

43. Muvofiqlik deklaratsiyasi yoki muvofiqlik sertifikati haqidagi ma'lumotlar texnikalar pasportida ko'rsatilishi shart.

44. Muvofiqlikni tasdiqlashda texnikalarning ushbu xavfsizlik talablarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan yoki ushbu xavfsizlik qoidalarining 34-bandida ko‘rsatilgan standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi.

45. Texnikalarning muvofiqligini tasdiqlashda talabnomada beruvchi texnikalar uchun ushbu xavfsizlik qoidalarining xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar to‘plamini shakllantiradi. Unga quyidagilar kiradi:

xavfsizlik asosnomasi;

texnik xususiyatlari (agar mavjud bo‘lsa);

ekspluatatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanma (yo‘riqnomasi);

ushbu texnikalar ushbu xavfsizlik qoidalarining 34-bandida ko‘rsatilgan standartlar talablariga mos kelishi kerak (agar ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llanilsa);

shartnomasi (yetkazib berish shartnomasi) (partiya, donabay) yoki yuk hujjatlari (partiya, donabay);

ishlab chiqaruvchining boshqaruvi tizimining sertifikati (agar mavjud bo‘lsa);

o‘tkazilgan tadqiqotlar to‘g‘risida ma’lumot (agar mavjud bo‘lsa);

ishlab chiqaruvchi, sotuvchi, chet el ishlab chiqaruvchisi va (yoki) sinov laboratoriyalari (markazlari) funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladigan texnikaning sinov hisobotlari (agar mavjud bo‘lsa);

materiallar va butlovchi (ehtiyyot) qismlarga muvofiqlik sertifikatlari yoki ularning sinov hisobotlari (agar mavjud bo‘lsa);

xorijiy sertifikatlash idoralaridan olingan ushbu texnikalar uchun muvofiqlik sertifikatlari (agar mavjud bo‘lsa);

texnikalarning ushbu xavfsizlik qoidalarining xavfsizlik talablariga (agar mavjud bo‘lsa) muvofiqligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

### **VIII-bob. Texnikalarning muvofiqligini deklaratsiya qilish tartibi**

46. Texnikaning muvofiqligini deklaratsiya qilish quyidagi sxemalar bo‘yicha amalga oshiriladi:

a) Seriyali ishlab chiqarilgan texnika uchun 1d-sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

ariza beruvchi ushbu xavfsizlik qoidalarining 45-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi; ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiradi va ishlab chiqarish jarayoni texnikaning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun barcha zarur choralarни ko‘radi; deklaratsiyalash organida namunalar sinovlarini o‘tkazadi, muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi.

b) Texnika partiyasi (donabay) uchun 2d-sxemasi bo‘yicha ariza beruvchi ushbu xavfsizlik qoidalarining 45-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi, deklaratsiyalash organida namunalar sinovlarini o‘tkazadi, muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi;

v) Ommaviy ishlab chiqariladigan texnika uchun 3d-sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

ariza beruvchi ushbu xavfsizlik qoidalarining 45-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi; ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiradi va ishlab chiqarish jarayoni texnikaning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun

barcha zarur choralarni ko‘radi; deklaratsiyalash organida namunalar sinovlarini o‘tkazadi, muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi.

g) Texnika partiyasi (donabay) uchun 4d-sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

ariza beruvchi ushbu xavfsizlik qoidalarining 45-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi; deklaratsiyalash organida namunalar sinovlarini o‘tkazadi, muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi.

d) Ommaviy ishlab chiqarilgan texnika uchun ishlab chiqaruvchi sertifikatlangan boshqaruva tizimiga ega bo‘lsa 6d-sxemasi qo‘llaniladi, bunda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

ariza beruvchi 45-bandda ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi; ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiradi va ishlab chiqarish jarayoni texnikaning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiq bo‘lishini ta’minalash uchun barcha zarur choralarni ko‘radi; deklaratsiyalash organida namunalarni sinovlardan o‘tkazadi; muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda ariza beruvchi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan yuridik yoki jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor yoki ishlab chiqaruvchi yoxud sotuvchi sifatida yoki yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini ta’minalash va yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik qoidalariga javob bermasligi uchun javobgarlik nuqtai nazaridan u bilan tuzilgan shartnomaga asosida chet el ishlab chiqaruvchisi (chet el ishlab chiqaruvchisi funksiyalarini bajaruvchi shaxs) bo‘lishi mumkin.

#### **IX-bob. Muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qilish uchun asos bo‘ladigan daliliy materiallar tarkibi**

47. Muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qilish uchun asos bo‘ladigan materiallar sifatida ushbu xavfsizlik qoidalarining 44-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar, shuningdek, ushbu xavfsizlik qoidalarining 34-bandida ko‘rsatilgan standartlardan foydalaniлади.

48. Ko‘rsatilgan hujjatlarni qo‘llash shartlari sifatida quyidagilar ko‘rib chiqilishi mumkin:

a) sinov bayonnomalari uchun:

sinov bayonnomalarida ariza bilan taqdim etilgan mahsulotga taalluqli bo‘lgan ushbu xavfsizlik qoidalarida belgilangan barcha talablarga muvofiqligini tasdiqllovchi ko‘rsatkichlarning qiymatlari mavjudligi;

ariza bilan taqdim qilingan texnika uchun sinov bayonnomalarining tadbiq etilishi;

b) muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik deklaratsiyalari yoki xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar uchun sinov bayonnomalari – agar ular muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo‘lgan yakuniy mahsulotning xavfsizligini belgilasa;

v) ishlab chiqarish sifat menejmenti tizimining sertifikatlari – agar ular taqdim qilingan texnikani ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lsa;

g) texnikaning belgilangan talablarga muvofiqligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tasdiqllovchi boshqa hujjatlar, ixtiyoriy sertifikatlashda e’lon qilingan texnika uchun berilgan muvofiqlik sertifikatlari (ixtiyoriy sertifikatlash paytida barcha zarur talablar tasdiqlanishi sharti bilan).

49. Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan yagona shakl bo‘yicha rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak. Muvofiqlik deklaratsiyasining amal qilish muddati u ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlanadi. Muvofiqlik deklaratsiyasi amal qilish muddati – 5 yil.

50. Ariza beruvchi muvofiqlik deklaratsiyasini va uni asoslantiruvchi materiallarni muvofiqlik deklaratsiyasi muddati tugagan kundan boshlab o‘n yil davomida saqlashi shart.

Muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar to‘plami davlat tekshiruvi (nazorati) organlariga ularning talablariga muvofiq taqdim etilishi kerak.

### **X-bob. Sertifikatlash tartibi**

51. Texnikani sertifikatlash texnik jihatdan tartibga solish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq quyidagi sxemalar bo‘yicha amalga oshiriladi:

a) Cyeriyali ishlab chiqariladigan texnika uchun 1s-sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

talabgor ushbu xavfsizlik qoidalarining 45-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi va sertifikatlash organiga sertifikatlash uchun ariza beradi;

sertifikatlash organi sinov o‘tkazish uchun ariza beruvchidan namunalar tanlab oladi;

sertifikatlash organi texnika namunalarini sinovdan o‘tkazadi;

sertifikatlash organi namunalarni sinovdan o‘tkazish va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish yo‘li bilan sertifikatlangan texnika ustidan inspeksion tekshiruvni amalga oshiradi.

b) Texnikalar partiya (donabay)lari uchun 3c-sxemasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

talabgor 45-bandda ko‘rsatilgan hujjatlar to‘plamini shakllantiradi

va sertifikatlash organiga sertifikatlash uchun ariza beradi;

sertifikatlash organi sinov o‘tkazish uchun ariza beruvchidan namunalar tanlab oladi;

sertifikatlash organi texnikalar namunalarini sinovdan o‘tkazadi;

sertifikatlash organi texnika namunalarining sinov natijalarini tahlil qiladi va natijalar ijobiy bo‘lsa, ariza beruvchiga muvofiqlik sertifikatini beradi;

sertifikatlash sxemalari bo‘yicha uchun ariza beruvchi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan yuridik yoki jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor yoki ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi sifatida yoki yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini ta’minlash va yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ushbu xavfsizlik qoidalariga javob bermasligi uchun javobgarlik nuqtai nazaridan u bilan tuzilgan shartnomaga asosida chet el ishlab chiqaruvchisi (chet el ishlab chiqaruvchisi funksiyalarini bajaruvchi shaxs) bo‘lishi mumkin.

52. Ariza beruvchi belgilangan tartibda tasdiqlangan sertifikatlash shaklidagi xavfsizlik talablariga rioya etilishini tasdiqlashi lozim bo‘lgan texnikalar ro‘yxatiga

kiritilgan har qanday sertifikatlash organiga sertifikatsiyadan o'tkazish uchun murojaat qilishi mumkin.

Sertifikatsiyalash uchun murojaat ariza beruvchi tomonidan tuziladi va quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

ariza beruvchining nomi va joylashgan joyi;

ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan joyi;

texnikalar haqida ma'lumot (uning tarkibi) va uni identifikatsiya qilish belgilari (nomi, tashqi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi bo'yicha kodi, texnikalar ishlab chiqarishga asos bo'lgan hujjat (davlatlararo yoki milliy standart, korxona standarti, texnik shart), ishlab chiqarish shakli-seriyali yoki partiya yoxud donabay, shartnoma (kontrakt) rekvizitlari);

Ushbu xavfsizlik qoidalarining 34-bandida ko'rsatilgan foydalanilgan standart (lar); sertifikatlash sxemasi.

53. Sertifikatlash organi arizani kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqadi va sertifikatlashni amalga oshirishi mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchi vakillari orqali berilgan arizalar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmasa, bu arizalar murojaat etuvchiga besh kunlik muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan qaytariladi.

Agar arizada zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, bu arizalar murojaat etuvchiga besh kunlik muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan qaytariladi.

Rad etish yoki tushuntirish xatlarida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili sertifikatlash organiga qonunchilikda belgilangan tartibda qayta murojaat qilishi mumkin.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda sertifikatlash organi sertifikatlashishlarini amalga oshirish uchun ariza beruvchi bilan shartnoma tuzadi.

Sertifikatlash organi sertifikatlash sxemasiga muvofiq ishlarni ariza beruvchi bilan tuzilgan shartnomada belgilangan muddatda amalga oshiradi, qaror tayyorlaydi va natija ijobjiy bo'lsa, ariza beruvchiga uch ish kunida muvofiqlik sertifikatini beradi.

54. Sinovdan o'tkazish va (yoki) ishlab chiqarish holatini tahlil qilish yakunida mahsulotning ushbu xavfsizlik qoidalari bilan belgilangan xavfsizlik talablariga javob bermasligi aniqlanganda sertifikatlash organi ariza beruvchiga muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror yuboradi.

55. Texnika turi namunasini (tur namunalarini) yoki donabay texnikani sinovdan o'tkazish sertifikatlash organining topshirig'i bo'yicha deklaratsiyalash organi tomonidan amalga oshiriladi va sinov bayonnomasi sertifikatlash organiga topshiriladi.

56. Ishlab chiqarish holatini tahlil qilish sertifikatlash organi tomonidan amalga oshiriladi. Tahlil natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Agar ishlab chiqaruvchi texnikalarni ishlab chiqarish yoki takomillashtirish va ishlab chiqarish uchun sertifikatlangan sifatni boshqarish tizimiga ega bo'lsa, sertifikatlash organi mazkur tizimning ushbu xavfsizlik talablariga javob beradigan sertifikatlangan texnikani barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash qobiliyatini baholaydi.

57. Sertifikatlash sxemasida nazarda tutilgan tekshirishlar ijobiy natija bergan taqdirda, sertifikatlash organi muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi va uni ariza beruvchiga beradi.

Muvofiqlik sertifikati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan yagona shaklda rasmiylashtiriladi.

Berilgan muvofiqlik sertifikati to‘g‘risidagi ma’lumotlar sertifikatlash organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va yagona shaklda berilgan muvofiqlik deklaratsiyalari Yagona reyestriga uzatiladi.

58. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati seriyali ishlab chiqarilgan texnika uchun 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga belgilanadi, partiya shaklida ishlab chiqarilgan texnikalar uchun muddat o‘rnatilmaydi.

59. Muvofiqlik sertifikati o‘zida qamrab olingan aniq mahsulotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan ilovaga ega bo‘lishi mumkin.

Quyidagi hollarda ilova rasmiylashtiriladi:

ariza beruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan va xuddi shu talablarga muvofiq sertifikatlangan bir hil mahsulotlar guruhining tarkibini batafsil bayon qilish talab etilsa;

mahsulot ishlab chiqarish uchun yagona sharoitga ega bo‘lgan yirik birlashmalar tarkibiga kiradigan ishlab chiqarish korxonalarini ko‘rsatish talab etilsa.

### **XI-bob. Milliy muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash**

60. Ushbu xavfsizlik qoidalarining 36 - 44-bandlariga asosan xavfsizlik talablariga javob beradigan va muvofiqlikni baholash tartibidan o‘tgan texnika milliy muvofiqlik belgisi bilan belgilanishi kerak.

61. Mahsulotlarni milliy muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash texnika bozorda muomalaga chiqarilgunga qadar amalga oshiriladi.

62. Mahsulotlarning milliy muvofiqlik belgisi texnikalarning har biriga ularning butun ishslash muddati davomida aniq va ravshan tasvirni ta’minlaydigan joyiga har qanday usulda yoziladi.

Mahsulotlarning milliy muvofiqlik belgisi tamg‘asi mahsulotning o‘ziga qo‘yiladi.

### **XII-bob. O‘tish davri**

63. Ushbu xavfsizlik qoidalari kuchga kirgan paytdan boshlab amalda bo‘lgan texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ular ushbu xavfsizlik talablariga muvofiq keltirilgunga qadar texnika xavfsizligiga o‘rnatilgan talablarni xavfsizlik talablariga zid bo‘lmagan qismi bo‘yicha qo‘llaniladi.

64. Xavfsizlik talablarining kuchga kirishidan oldin texnika uchun olingan muvofiqlik sertifikatlari ushbu hujjatlarda belgilangan muddat davomida amal qilishda davom etadi.

### **XIII-bob. Yakunlovchi qoidalar**

65. Ushbu xavfsizlik qoidalariга rioya etilishi ustidan davlat nazoratini O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiysi o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Qonunchilikda va ushbu xavfsizlik qoidalariда belgilangan majburiy talablarga rioya etilmagan taqdirda ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatlari vakilining, sotuvchining, import qiluvchining javobgarligi quyidagicha.

Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun jismoniy shaxslar qonunchilikka muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi tomonidan qonunchilikda va ushbu xavfsizlik qoidalarida mahsulotga doir nazarda tutilgan majburiy talablarga riosa etilmagan taqdirda, ularga nisbatan:

huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda — majburiy talablarga muvofiq bo'limgan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi;

xuddi shunday huquqbuzarlik ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiya qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil davomida takroran sodir etilganda — majburiy talablarga muvofiq bo'limgan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining yuz foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, bundan mahsulotni ishlab chiqaruvchilar, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakillari, sotuvchilar yoki import qiluvchilar sodir etilgan huquqbuzarlikda aybdorligini tan olgan va moliyaviy sanksiyalar summasi bir oy muddatda ixtiyoriy ravishda to'langan hollar mustasno.

Agar mahsulotga, uni ishlab chiqarish jarayonlariga yoki usullariga nisbatan qonunchilikda va ushbu xavfsizlik qoidalari da belgilangan majburiy talablarga ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi tomonidan riosa etilmaganligi natijasida fuqarolarning hayotiga yoki sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga, davlat mulkiga, atrof-muhitga, hayvonlarga yoki o'simliklarga zarar etkazilsa yoki shunday zarar etkazilishi xavfi yuzaga kelsa, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi, ijrochi etkazilgan zararning o'rnnini qonunchilikka muvofiq qoplashi hamda boshqa shaxslarga, ularning mol-mulkiga, atrof-muhitga zarar etkazilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida choralar ko'rishi shart.

Zararning o'rmini qoplash majburiyati shartnoma yoki taraflardan birining arizasi bilan cheklanishi mumkin emas.

Jarimani to'lash yuridik shaxslarni mahsulot xaridorlariga (iste'molchilariga) etkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashinalar hamda kichik o‘lchamli traktorlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi talablarga

### **Texnikalarga qo‘llaniladigan xavfsizlik talablari**

1. Texnikalar ushbu ilovada ko‘rsatilgan xavfsizlik talablariga javob berishi kerak.
2. Texnikadan va uning ishchi organlaridan foydalanishda operatorning ish joyidan ko‘rish doirasi xavfli zonadagi xodimlarning xavfsizligini ta‘minlash uchun yetarli bo‘lishi kerak. Zarur hollarda ko‘rish doirasi chegaralanishi oqibatidagi xavfni bartaraf etish uchun zarur vositalar taqdim etilishi kerak.
3. Operator o‘z ish joyida turib texnikaning ishlashi uchun zarur bo‘lgan boshqaruv elementlarini faollashtirishi kerak. Istisno holatlar faqat xavfsizlikni ta‘minlash uchun operatorning ish joyidan tashqarida joylashgan boshqaruv elementlari yordamida bajarilishi kerak bo‘lgan ish turlari hisoblanadi.
4. O‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli g‘ildirakli traktorlarning rul tizimi boshqariluvchi g‘ildiraklardagi tashqi ta’sirlar tufayli yuzaga keladigan rul yoki boshqaruv dastaklaridagi kuchni kamaytirish uchun mo‘ljallangan va ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak.
5. Differensial qulfni boshqarish o‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktor harakatlanayotganda differensial qulfni ochish mumkin bo‘lgan tarzda ishlab chiqilishi va o‘rnatalishi kerak.
- Agar ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish uchun o‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktor uning o‘lchamlaridan ortiq bo‘lgan uskunalar (masalan, stabilizatorlar, o‘qlar va boshqalar) bilan jihozlangan bo‘lsa, ko‘rsatilgan funksiyalarni bajarish uchun operator ushbu uskunaning texnikani harakatlantirishda xavf tug‘dirmaydigan belgilangan holatda ekanligini ishlatishdan oldin ta‘minlashi kerak.
6. Dvigatelni ishga tushirish jarayonida texnikaning bexosdan harakatlanishi istisno etilishi kerak.
- O‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktor ish rejimlarida yuk ortilishi darajasi va ish hujjatlarida nazarda tutilgan tezlikni ta‘minlash uchun tezlikni kamaytirish, to‘xtatish va stasionar saqlash jarayonlariga qo‘yiladigan talablarga javob berishi kerak.
7. Operator ishchi boshqaruv organi yordamida o‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktorni sekinlashtirishi yoki butunlay to‘xtatishi kerak. Agar bu xolat xavfsizlikni talab qiladigan bo‘lsa, nazorat tizimining nosozligi yoki elektr ta‘minoti jarayonining buzilishi holatlarida texnikalar favqulodda tezlikni kamaytirish yoki to‘xtatish qurilmasi bilan to‘liq mustaqil va osongina foydalanish mumkin bo‘lgan boshqarish organi bilan jihozlanishi kerak.
- O‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktorlar xavfsizlikni ta‘minlash zaruriyatiga ko‘ra to‘liq harakatlanmaslikni ta‘minlaydigan tormoz bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.
8. Agar texnikani yoki texnikalar tizimini masofadan boshqarish zarur bo‘lsa, har bir boshqaruv qismi mo‘ljallangan texnika bilan aniq identifikatlanishi kerak.

Masofadan boshqarish tizimi faqat tegishli texnika va (yoki) muayyan operatsiyalarni nazorat qila oladigan tarzda ishlab chiqilishi va qurilishi kerak.

Masofadan boshqarish tizimi bilan jihozlangan texnika faqat ma'lum bir boshqaruv blokining signallariga javob beradigan tarzda ishlab chiqilgan va ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

9. Operator tomonidan boshqariladigan texnika faqat tegishli boshqaruv organlaridan operatorning uzluksiz ta'siri natijasida harakatlanishi kerak. Dvigateli ishga tushirish jarayonida texnikaning bexosdan harakatlanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

10. Harakatlanuvchi operator tomonidan boshqariladigan texnikaning boshqarish tizimlarini konstruksiyalashda mashina bexosdan operator tomon harakatlanishi bilan bog'liq barcha xavflarni kamaytirish choralarini ko'rishi kerak.

Texnikaning tezligi harakatlanuvchi operatorning tezligiga mos bo'lishi kerak.

Agar texnika aylanadigan asbob bilan jihozlangan bo'lsa va texnika to'g'ridan-to'g'ri ushbu aylanadigan asbob tomonidan boshqarilmassa unda texnika orqaga harakatlanayotganda uni oldinga yurib ketishining har qanday imkoniyati istisno qilinishi kerak. Shuningdek, texnikaning teskari xarakat tezligi operator uchun xavf tug'dirmasligi kerak.

Rul tizimi elektr manbaining ishdan chiqishi texnikaning to'liq to'xtashi uchun zarur bo'lgan vaqt davomida uning ishlashiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

11. Texnika harakatga kelganda uning og'irlik markazining nazoratsiz tebranishlari texnikaning barqarorligiga ta'sir qilmasligi va uning konstruksiyasiga ortiqcha yuklarni hosil qilmaydigan qilib loyihalangan

va ishlab chiqarilgan bo'lishi va zarur bo'lsa shassiga o'rnatilishi kerak.

O'ziyurar mashina belgilangan ish sharoitida barqarorligini saqlab turadigan tarzda ishlab chiqilgan, loyihalangan

va ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

12. Belgilangan ish sharoitida o'ziyurar mashinaning ag'darilishi xavfi mavjud bo'lsa, u ag'darilishga qarshi himoya vositasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Texnika ag'darilganda, ushbu qurilmaning konstruksiyasi texnikadagi operatorga tegishli hajmda deformatsiyaning cheklanishini ta'minlashi kerak.

Texnikaning o'rindiqlari mos ravishda qurilgan yoki operatorga texnikaning kerakli boshqaruvini cheklamagan holda ushlab turishga imkon beradigan cheklash tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

13. Agar o'ziyurar mashinaning ishlash sharoitiga qarab unga turli moslamalarning tushishi xavfi mavjud bo'lsa, u holda u tushadigan ob'yeektni himoyalash qurilmasi bilan jihozlanishi kerak.

Ob'yeektlar qulab tushganda, ushbu qurilmaning konstruksiyasi texnikadagi operatorga deformatsiyaning tegishli darajada cheklanishini ta'minlashi kerak.

14. Tortish uchun mo'ljallangan yoki o'zлari tortib olinadigan texnikalar osongina va xavfsiz ulanishni yoki o'chirishni ta'minlashi va ish paytida tasodifiy uzilishning oldini olish uchun ishlab chiqilgan, ishlab chiqarilgan va joylashtirilgan tortish moslamasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

15. Yarim tirkamali, yarim o'rnataladigan texnikalar yuk ortish va yer qatlami sharoitlariga mos keladigan tayanch sirtlari bo'lgan tirkaklar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

16. O'ziyurar mashinalar (kichik o'lchamli traktorlar)ni shatakka olinadigan texnikalarning dastlabki qattiq tayanchlari bilan bog'laydigan yechib olinadigan mexanik quvvat ajratib beruvchi qurilmalarining harakatlanishi davomida uning har qanday qismi butun uzunligi bo'yab himoya qilingan bo'lib qurilishi va ishlab chiqarilishi kerak.

Quvvat uzatish vali qurilmasi biriktirilgan o'ziyurar mashina (kichik o'lchamli traktor)ning quvvat uzatish vali o'ziyurar mashinaga (kichik o'lchamli traktorga) mahkam qotirilgan maxsus himoya to'siqlari bilan yoki unga mos himoya darajasini ta'minlovchi boshqa har qanday qurilma bilan himoyalangan bo'lishi kerak.

Quvvat uzatish vali qurilmaning ushbu xavfsizlik qoplamasи ochilish imkonini berishi kerak. Qurilma o'ziyurar mashina (kichik o'lchamli traktor) harakati davomida kardan vali tomonidan himoya to'siqlariga zarar yetkazmaydigan joyda o'rnatalishi kerak.

Sozlangan texnikaning quvvat uzatish vali uning ustiga o'rnatalgan himoya korpusiga o'ralgan bo'lishi kerak.

Aylanish davri chegaralovchi yoki ilashish muftalari kardan valining universal bo'g'imi (sharniri) faqat shatakka olinadigan texnika tomonida biriktirilishi mumkin. Yechib olinadigan quvvat uzatish vali qurilmasi belgilangan tartibda uning sirtiga yozilgan tamg'aga ega bo'lishi kerak.

17. O'ziyurar mashinalar (kichik o'lchamli traktorlar) bilan bog'lanish uchun quvvat uzatish vali qurilmasini talab etadigan barcha shatakka olinadigan texnikalar ularni quvvat uzatish vali talab etilganda qurilma va uning xavfsizlik to'siqlari yer yoki texnika detallari bilan tutashishida yuzaga keladigan shikastlanishdan himoya etuvchi bog'lanish tizimiga ega bo'lishi kerak.

Himoya to'siqlarining tashki qismlari yechib olinadigan quvvat uzatish vali qurilmasi bilan birga aylanib qolmaydigan holda qurilgan va ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Himoya to'siqlarining tashqi qismlari shunday qurilishi, ishlab chiqarilishi va joylashtirilishi kerakki, ular yechib olinadigan quvvat uzatish vali qurilmasi bilan bir vaqtda aylanmasligi kerak. Himoya to'siqlari qardan valni ichki bo'g'imlar vilkalarining oxirigacha (oddiy universal bo'g'implarda) va kamida keng burchakli universal bo'g'implarda tashqi bo'g'imning o'rtasiga qadar qoplashi kerak.

Agar texnikadagi ish joylariga kirish vositasi olinadigan quvvat uzatish vali qurilmasi yaqinida joylashgan bo'lsa, ular operatorning himoya to'siqlarini zinapoya sifatida ishlatishiga yo'l qo'ymasligi kerak, ushbu holat konstruksiyada nazarda tutilishi bundan istisno.

18. Akkumulyator batareyalarini o'rnatalish joylari texnika ag'darilganda operatorning elektrolitga duchor bo'lishi xavfining oldini olish va operator ish joyida elektrolit bug'larining to'planishiga yo'l qo'ymaslik uchun mo'ljallangan va qurilgan bo'lishi kerak.

Texnika akkumulyator batareyalari oson, qulay va maxsus mo'ljallangan qurilma (kalit) yordamida uzib qo'yish mumkin bo'lgan tarzda ishlab chiqilishi va qurilishi kerak.

19. Xavf turlariga qarab texnika osonlik bilan olinishi mumkin bo‘lgan joylarda va (yoki) ichki yong‘inni o‘chirish tizimlarida joylashgan yong‘inga qarshi vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

20. Texnikaning asosiy vazifasi purkash bo‘lsa, operator xavfli moddalar ta’sir qilishi xavfidan himoyalangan bo‘lishi kerak.

21. Operator o‘rindiqlari bilan jihozlangan texnikalar shatakka olgan texnikalarga tegishli signal uzatish qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak (zarur hollarda).

22. Qurilma ishlagan paytda energiya bloki kabinasidan tashqarida bo‘lgan texnikalar operatorlarining ish joyi tuproq, texnologik materiallar va loy chaplanishdan himoyalangan bo‘lishi kerak.

23. Tashish kengligi va (yoki) balandligini kamaytirishga mo‘ljallangan yig‘ilib olinadigan elementlar transport holatida ushlab turish uchun mexanik yoki boshqa vositalarga ega bo‘lishi kerak.

24. Tog‘li sharoitda ishlashga mo‘ljallangan o‘ziyurar mashina va kichik o‘lchamli traktorlar va energiya uskunalari ruxsat etilgan maksimal nishab signal tizimlari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

25. O‘rnatilgan, yarim o‘rnatilgan, tirkalgan, yarim tirkalgan va qo‘sib olinadigan qishloq xo‘jalik mashinalariga belgilangan xavfsizlik talablari o‘rnatilgan, yarim o‘rnatilgan, tirkalgan yoki qo‘sib olingan texnika va traktordan iborat mashina-traktor agregatining bir qismi sifatida sinovdan o‘tkazilganda baholanadi.

26. Agar o‘ziyurar mashinalar va quvvat vositalari xavfli muhitda foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa yoki texnikalar va quvvat vositalarining o‘zi xavfli muhitga olib kelsa, operatorning normal ishlashini ta’minlash va uni oldindan xavfdan himoya qilish uchun tegishli qurilmalar o‘rnatilishi kerak.

27. Operatorning ish joyi kabina bilan jihozlanganda operatorga texnikani tezda tark etish va kamida bitta favqulodda chiqish imkonini berishi kerak.

28. Traktorlarga agregatlanadigan va uning yorug‘lik-signal qurilmalarini to‘suvchi qishloq xo‘jaligi mashinalari, shuningdek, o‘ziyurar mashinalar o‘zining tashqi yorug‘lik qurilmalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi va o‘ziyurar mashinalar hamda kichik o‘lchamli traktorlarning xavfsizligi to‘g‘risidagi talablarga

**Xavfsizlik talablariga muvofiqligi tasdiqlanishi  
sertifikatlash shaklida amalga oshiriladigan ob’yektlar ro‘yxati**

- 1.O‘ziyurar mashinalar.
2. Kichik o‘lchamli traktorlar.
3. Qishloq xo‘jaligi mashinalari.
4. Kichik mexanizatsiyalash vositalari, shu jumladan, ushbu yo‘nalishda elektr bilan ishlovchi vositalar.
5. Chorvachilik, parrandachilik va yem-xashak ishlab chiqarish mashinalari.
6. Mexanzatsiyalashtirilgan asboblar, shu jumladan, elektr asboblari.